

ISTODA RASULOVA

***ULUG' TURSUNOV
VA SAMARQAND
TILSHUNOSLIK
MAKTABI***

Monografiya

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH
UNIVERSITETI

RASULOVA ISTODA ABDULATIFOVNA

ULUG‘ TURSUNOV VA
SAMARQAND TILSHUNOSLIK
MAKTABI

“FAN BULOG‘i” nashriyoti
SAMARQAND – 2023

UO‘K: 811.512.133'1(092)

KBK 81.2O‘zb

R 25

Rasulova I.A.

Ulug‘ Tursunov va Samarqand tilshunoslik maktabi:
monografiya / Samarqand, “FAN BULOG‘I” 2023. – 80 b.

O‘zbek tilshunosligi rivojiga hissa qo‘shgan olimlar asarlarini o‘rganish, ularning tilimiz taraqqiyotida tutgan o‘rmini tadqiq etish keyingi yillarda o‘ziga xos samara bermoqda. Shunga ko‘ra, mazkur kitobda tilshunos olim Ulug‘ Tursunovning o‘zbek tilshunosligida ko‘plab sohalarning vujudga kelishi va o‘ziga xos belgilarini aniqlash, til sathlaridagi muammolarining tadqiq etilishi borasidagi xizmatlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Mas’ul muharrir:

J.ELTAZAROV

filologiya fanlari doktori,
professor

Taqrizchilar:

A.PARDAEV

filologiya fanlari doktori

A.G‘AFFOROV

filologiya fanlari nomzodi

ISBN:978-9910-753-41-1

©“FAN BULOG‘I” nashriyoti. 2024.

© Rasulova I.A. 2024.

Kirish

XX asr o'zbek xalqi hayotida bo'lgani singari o'zbek adabiy tili taraqqiyotida ham muhim burilishlar yasagan davr bo'ldi. Mustaqillik davrida o'zbek xalqining ongi va tafakkuri, istiqlool mafkurasiga yo'g'rilgan dunyoqarashi, ma'naviyati va madaniyati shakllanishida adabiy tilimizga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, tilimizga Davlat tili maqomining berilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Adabiy tilimizning o'z mavqeini tiklab olishi, jahonning rivojlangan davlatlarida ham o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi, yurtimizda ta'lim tizimidan tortib ish yuritishning hamma sohalarida tilimiz funksional-stilistik imkoniyatlarining kengayishida, albatta, so'z san'atkorlari, filologik yo'nalishda faoliyat yuritayotgan soha xodimlarining xizmatlari beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2019-yil 8-oktyabrda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonida xalqimiz ma'naviy merosiga, o'zbek ilm-fani rivoji to'g'risida so'z yuritilib, "oliy ta'limni davlat tomonidan boshqarish tizimi samaradorligiga va professor-o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ular tomonidan ta'lim berishda qo'llanilayotgan ta'lim-tarbiya usullarining ta'sirchanligiga xolisona baho berish"¹ lozimligi alohida ta'kidlangan edi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari to'g'ri ta'kidlaganidek, bu maqsadda amalga oshirilgan harakatlar bugungi kun uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi shubhasizdir.

Shunday ekan, o'zbek adabiy tilimizning har tomonlama rivojlanib, taraqqiy etishida tilshunos olimlarimizning sermashaqqat xizmatlarini alohida ta'kidlash, ular tomonidan yaratilgan asarlarning fanimiz uchun ahamiyatini to'g'ri belgilash, xolisona tahlil qilish bugungi kunning talabidir.

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/2966>

Yirik tilshunos olim Ulug‘ Tursunovning tilshunoslikning deyarli hamma sohalariga oid dolzarb muammolarga bag‘ishlangan asarlari jahon tilshunosligining yutuqlaridan xabardor bo‘lgan, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan bugungi kun o‘zbek tilshunoslarini tarbiyalab yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug‘ Tursunovning o‘zbek tilini har tomonlama mukammal o‘rganishga, uning hali o‘z yechimini topmagan muammolarini tadqiq etishga bo‘lgan munosabati, tilimiz uslubiy imkoniyatlari, so‘z va iboralarga, nozik qochirimlarga, o‘ziga xos usul va vositalarga boyligi va chuqur ildizlari va manbalariga egaligini anglash tuyg‘usi olimning barcha asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, Ulug‘ Tursunovning tilimiz tarixi, grammatik qurilishi, shevalardagi yashirin imkoniyatlarni aniqlashga oid asarlarida o‘zbek tilining lisoniy vositalarga boyligi, nutqning turli ko‘rinishlariga xos so‘z va iboralarning bo‘yoqdor va ta’sirchanligi, ifodaliligi lingvistik vositalar yordamida yuzaga chiqishi turli manba va matnlarni tahlil qilish orqali tasvirlab berilgan.

O‘zbek tili fonetik tizimi, leksik-frazeologik boyligi, grammatik qurilishi, dialektologiyasi, uslubiyati, tarixidan mukammal darajada bilimga ega bo‘lgan va shu sohalarining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan Ulug‘ Tursunovning bu boradagi xizmatlari to‘g‘risida ma’lum darajada ayrim ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, biroq olimning tilshunos sifatida tadqiq uslubi, uning tilshunoslikdagi o‘ziga xos o‘rni shu kunga qadar lingvistik jihatdan alohida tadqiq obyekti bo‘lgan emas edi. Vaholanki, Ulug‘ Tursunovning o‘zbek tilshunosligi rivojida tutgan o‘rni va Samarqand tilshunoslik maktabini yaratishdagi xizmatlarini belgilashda mazkur mavzuda kuzatishlar olib borish fanimiz uchun muhim va dolzarb hisoblanadi.

Mazkur muammoning tadqiq etilishi haqida fikr yuritganda, tilshunosligimizning shu vaqtga qadar o‘rganilish holati, o‘zbek tilining turli sathlarini o‘rganish, o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish bo‘yicha katta ishlar qilinganligi, muxtasar qilib aytganda, tilimiz grammatik, leksik-semantik, uslubiy va statistik jihatdan

o'rganish bo'yicha jiddiy yutuqlarga erishishda Ulug' Tursunovning ham salmoqli ulushi borligi olimlarimiz tomonidan e'tirof etilganligi qator tadqiqotlarda aks etganligini ta'kidlash lozim. Usmonov I., Donyorov X., Salomov G., Shermuhammedov S.,² Xo'jaev T., Xoliyorov K.³, Mirzaev S., Hamdamov J.⁴, Muxtorov J., Xojimatov J.⁵, Shukurov N., Doniyorov X., Rajabov N., Axmedov M., Xoliyorov X., O'rinboyev B.⁶, Rajabov N., Qorayev T., Abdullayev A., O'rinboyev B., Qilichev E., Halilov M.,⁷ Abdullayev F., Shoabdurahmonov Sh.,⁸ O'rinboyev B., D.O'rinboyevalarning⁹ Ulug' Tursunovning ilmiy-pedagogik faoliyati aks etgan tadqiqotlari olim faoliyatining tilshunoslarimiz e'tiborida ekanligidan dalolat beradi.

Ammo shuni alohida qayd etish lozimki, Ulug' Tursunov ilmiy merosini o'rganish bo'yicha tilshunoslikda ma'lum bir ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ular mavzu mohiyatini to'lasincha yoritib bera olmaydi. Shuning uchun Ulug' Tursunovning o'zbek tilshunosligi taraqqiyotida tutgan o'rnini belgilash, uning lingvistik merosini chuqurroq o'rganish, olimning o'ziga xos tadqiq usul va vositalarini ochib berish tilshunoslarning oldida turgan dolzarb, ayni damda mazkur mavzuni alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganuvchi tilshunosga ulkan va sharaflı mas'uliyat yuklaydigan vazifalardan bo'lib turibdi.

² Усмонов И., Донёров Х., Саломов Г., Шермухаммедов С. Моҳир педагог истеъдодли олим // Ўқитувчилар газетаси, 1958. 4 июль.

³ Хўжаев Т., Холиёров К. Етук олим ва моҳир педагог // Совет мактаби, 1963, №3, 6.70-71.

⁴ Мирзаев С., Ҳамдамов Ж. Олим ва мураббий // Ўзбекистон маданияти, 1965, 23 январь.

⁵ Мухторов Ж., Хожиматов Ж. Олим ва устоз // Ўқитувчилар газетаси, 1965, 28 январь.

⁶ Шукуров Н., Дониёров Х., Ражабов Н., Ахмедов М., Холиёров Х., Ўринбоев Б. Камтарин устоз // Самарқанд университети, 1965, 30 январь.

⁷ Ражабов Н., Қораев Т., Абдуллаев А., Ўринбоев Б., Қиличев Э., Ҳалилов М. Олим ва устоз // Бухоро ҳақиқати, 1965, 31 январь.

⁸ Абдуллаев Ф., Шоабдурахмонов Ш. Эллиқ йил ичида ўзбек тилшунослиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 1967, № 5, б. 20-24.

⁹ Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Улуғ Турсун ва Самарқанд тилшунослиқ мактаби. Ўқув қўлланма - Самарқанд, 2004. - 145 б.

ULUG‘ TURSUNOV VA HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI MASALALARI

Ulug‘ Tursunovning ilmiy pedagogik faoliyati.

Bugungi kunda har bir mustaqil davlat o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini tanlagan. Yurtboshimiz birinchi prezidentimiz Islom Karimovning ta’kidlashicha, madaniyat, san’at, fanni rivojlantirish, uni yangi davr, yangicha dunyoqarash nuqtayi nazaridan taraqqiy toptirish davlatimiz va jamiyatimiz istiqbolining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir¹⁰. Ma’naviy dunyoqarashimiz asosini tashkil qiluvchi ushbu qarashlarning tilshunoslik fanidagi ahamiyatini belgilash lisoniy hodisalarni yangicha yondashuvlar asosida tadqiq qilishni taqozo qiladi. O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida muhim o‘rin tutuvchi siymolardan biri bo‘lgan Ulug‘ Tursunov 1905-yilning 9 yanvarida Qo‘qon shahrida dunyoga kelgan. Otasi vafotidan so‘ng, 1919-1921-yillarda o‘sha yerdagi Dorush shafaqa (shafqat uyi, mehribonlik uyi)da tarbiyalangan. Shunday bo‘lishiga qaramay, u 1924-yilda Qo‘qon shahridagi pedagogika bilim yurtini tugatgan. U 3 yil davomida Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlaridagi bolalar uyida tarbiyachilik, maktablarda o‘qituvchilik qilgan, o‘quv ishlari bo‘yicha bo‘lim mudiri lavozimlarida ishladi. U ilmga bo‘lgan chanqoqligi tufayli 1927-yilda Sankt-Peterburg (sobiq Leningrad) shahridagi Sharq tillari institutiga o‘qishga kirdi. 1930-yilda uni muvaffaqiyat bilan tugatgach, O‘rta Osiyo davlat universiteti hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetida o‘qituvchilik qila boshladi. 1931-yilda bir necha vaqt armiya safida xizmat qildi.

U.T.Tursunov 1931–1932-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Xalq maorifi komissarligi huzuridagi til va terminologiya qo‘mitasida ilmiy xodim, Toshkent shahridagi tojik agropedagogika institutida o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining mudiri lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. Shu vaqtdan boshlab uning hayotida yangi davr – ilmiy faoliyat davri boshlandi, deyish mumkin.

¹⁰ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000. – Б. 238.

U.T.Tursunov 1932-1934 yillarda Madaniy qurilish ilmiy tadqiqot institutida tilshunoslik sektori mudiri va katta ilmiy xodim vazifalarida faoliyat ko'rsatdi.

U.T.Tursunov 1934-yilda O'zbek fan qo'mitasining A.S.Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti direktori o'rinbosari va, ayni paytda, tilshunoslik sektori mudiri lavozimiga tayinlandi.

U.T.Tursunov 1936-yildan boshlab O'zbek davlat universiteti (hozirgi SamDU) o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri bo'lib ishladi va umrining oxirigacha o'zbek tilshunosligi fani taraqqiyoti uchun xizmat qildi.

U.T.Tursunov 1941-yilda "O'zbek tilida so'z turkumlarining yasallishiga doir masalalar to'g'risida" mavzuyida nomzodlik dissertatsiyasini hamoya qilgach, frontga otlandi. 1941–1946-yillar davomida armiyada xizmat qiladi.

U.T.Tursunov 1946-yildan yana SamDU o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri vazifasida ilmiy-pedagogik faoliyatini boshladi va bu faoliyat umrining oxiriga qadar – 1971-yilgacha davom etdi. Ayni paytda, shu yillar davomida SamDU qoshidagi filologik fanlar bo'yicha fan nomzodi ilmiy darajasini berishga ixtisoslashgan kengash a'zosi bo'ldi.

U.T.Tursunovning jamiyat oldidagi xizmatlari munosib taqlirlangan. Mukofotlarining bir qismi fashizmga qarshi urushdagi xizmatlari uchun bo'lsa, ikkinchi bir qismi tinch qurilish yillaridagi ilmiy-pedagogik faoliyati uchun berilgan.

U. Tursunovning ilmiy salohiyati munosib qadrlanib, 1950-yilda unga dotsent, 1958-yilda professor, 1965-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvonlari berilgan.

Darhaqiqat, prof. U.T.Tursunovning ilmiy-pedagogik faoliyati g'oyat serqirra va ibratlidir.

Asosiy yo'nalish – bu ilmiy yo'nalish. Olim umri davomida o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolariga bag'ishlangan 130 dan ortiq darsliklar, o'quv qo'llanmalari, risolalar va maqolalardan iborat asarlar yaratdi.

Ma'lumki, Ulug' Tursunovning ilmiy faoliyati o'zbek tilshunosligining hamma sohalari – dialektologiya, leksikologiya, terminologiya, stilistika, frazeologiya, badiiy asar tili, til tarixi, o'zbek tili grammatikasi, rus va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi kabi muhim sohalari bilan chambarchas bog'liq holda olib borilgan.

Fanimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi professor Ulug' Tursunov o'zbek tilshunosligining bugungi kunning dolzarb hisoblangan muhim muammolariga qo'l urib, mahsuldorlik bilan qalam tebratgan olimlardan biridir.

Ulug' Tursunovning ilmiy faoliyati bevosita Rossiya tilshunosligi bilan bog'liq. U Leningraddagi Sharq tillari institutining turkologiya bo'limini 1930-yilda tugatgach, o'zbek tilida fe'llarning yasashiga bag'ishlangan kitobini yaratdi. Uning mazkur kitobida o'zbek tilida fe'llarning affikslar va yordamchi fe'llar yordamida yasashi haqida to'liq ma'lumot berilgan¹¹. Ana shu davrdan boshlab Ulug' Tursunov o'z tadqiqotlarida zamonaviy o'zbek tilining dolzarb masalalari to'g'risida fikr yuritib, bu muammolar tahliliga bag'ishlangan bir qator qator asarlar yaratdi¹². U tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'zbek tilida so'z turkumlarining yasashi¹³, so'ng ko'makchilar¹⁴, fe'l darajalari, morfologiya, ravishdosh shakllari¹⁵ to'g'risida ilmiy-nazariy fikrlar bayon qilingan. Olim bu boradagi kuzatishlarini umumlashtirib, 1965-yili morfologiya va leksikologiya qismlaridan iborat bo'lgan, sirtqi bo'lim talabalariga mo'ljallangan qo'llanma nashr ettirdi. Bu asar keyinchalik 1975-yilda "O'qituvchi" nashriyotida qayta to'ldirilgan holda nashr etildi.

¹¹ Турсунов У. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ясашига доир масала тўғрисида. Филология фанлари кандидати даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Самарканд: 1941, Б.74.

¹² Турсунов У. Ўзбек тилида сўнг кўмакчилар //Труды Узбекского госуниверситета им. А.Навои. Новая серия. Вып. 34. –Самарканд: 1947, С.27-33.

¹³ Турсунов У. Ўзбек тилидаги феъл даражалари тўғрисида // Труды Узбекского госуниверситета им. А.Навои. Новая серия. Вып. 66. –Самарканд: 1956, С.3-18.

¹⁴ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология, лексикология. –Тошкент: Ўқитувчи, 1975. –Б.260.

¹⁵ Турсунов У. Ўзбек тилидаги баъзи бир равишдosh формаларнинг хусусиятлари. // Труды Узбекского госуниверситета им. А.Навои. Новая серия. Вып. 139. –Самарканд: 1964, С.11-12.

Mazkur kitoblarda hozirgi o‘zbek adabiy tili, uning fonetik va leksik tizimi boshqa turkiy tillarga o‘xshash jihatlari, hozirgi o‘zbek adabiy tilining og‘zaki va yozma shakli to‘g‘risidagi fikrlar bayon qilingan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, o‘zbek adabiy tilining grammatik qurilishi, grammatikaning umumlashtiruvchanlik xususiyati, tilshunoslikda asosiy hisoblangan grammatik kategoriya, grammatik ma’no va grammatik shakl, ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi tushunchalar o‘zbek tilshunosligida dastlab professor Ulug‘ Tursunovning tadqiqotlarida ilmiy muomalaga kiritildi, ularda bu tushunchalar mohiyati yoritib berildi. Vaholanki, o‘sha davrda, xususan, o‘tgan asrning 50-70-yillarida tilshunoslikka oid tadqiqotlarda bu masala olimlarimiz nazaridan ma’lum darajada chetda qolgan edi.

Ulug‘ Tursunovning tilshunoslik sohalari, ayniqsa, o‘zbek adabiy tili tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlari olimning tadqiq doirasida yetakchi sohalaridan biri hisoblanadi. Ulug‘ Tursunovning bu sohadagi kuzatishlari “Navoiy va o‘zbek adabiy tili”, “XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘zbek adabiy tilimiz tarixidan” kabi tadqiqotlarida aks etgan.

O‘zbek tili leksikologiyasini o‘rganish ham Ulug‘ Tursunovning asosiy tadqiqot sohalaridan ekanligi uning rahbarligida va ishtirokida “O‘zbek tilida omonimlarning rivojlanish yo‘llari” (1964), “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida omonimlarning yuzaga kelish usullari” (1966), “Navoiy omonimlar haqida” (1971) kabi ishlar yaratilganligida ko‘rinadi. Bu ishlarda o‘zbek tili lug‘aviy tizimidagi polisemiya, sinonimlar, omonimlar, antonimlar, terminologiya kabi hodisa va tushunchalar haqida atroflicha ma’lumotlar keltirilgan.

Ma’lumki, XX asrning 20 va 30-yillarida o‘zbek adabiy tiliga atama qabul qilish va uni qo‘llash mezonlari ma’lum darajada ishlab chiqildi. Bu ishda U.Tursunov ham faol ishtirok etgan va bunga doir fikrlarini “Til bilimidagi yangi oqim”, “Til va terminologiyada burjua intilishlariga qarshi”, “Terminologiya masalalari” nomli

asarlarida atamashunoslikning dolzarb masalalari sifatida yoritib bergan. Ularda o'zbek tilshunoslik fanining muammolari, o'zbek tilining jahon madaniyati xazinasida o'ziga xos o'rniga ega ekanligi asoslab berilgan.

U.Tursunovning o'zbek tilshunosligi dolzarb muammolariga oid qarashlari u tomonidan yaratilgan darslik va qo'llanmalarda o'z aksini topgan. Uning 1960-yilda shogirdi J.Muxtorov bilan hamkorlikda tilshunoslikning morfologiya qismiga bag'ishlab yaratilgan "Hozirgi zamon o'zbek tili" qo'llanmasi keyinchalik qayta ishlanib 1965 va 1995-yillarda darslik tarzida nashr etildi. Shuningdek, uning yana bir shogirdi B.O'rinboev bilan hamkorlikda 1982-yilda yaratilgan "O'zbek adabiy tili tarixi"dan qo'llanmasi 1995-yilda darslik sifatida nashr etildi. Mazkur darsliklar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, filologik yo'nalishdagi fakultetlarda dasturul amal sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Ulug' Tursunovning ilmiy qarashlari bevosita uslubiyat bilan ham bog'lanadi. O'zbek milliy adabiy tilini uslubiy nuqtayi nazardan o'rganish sohasida ham sezilarli ishlar qilindi. Ma'lumki, Samarqand tilshunoslik maktabida uslubiyatga doir kuzatishlarni dastlab A.Fitrat o'zining "Adabiyot qoidalari" asari bilan boshlab bergan edi. Ulug' Tursunov ilmiy faoliyatida muhim o'rin tutuvchi Samarqand tilshunoslik maktabida badiiy asar tili va uslubini o'rganish, o'zbek tilining vazifaviy uslublarini tadqiq etish masalalariga ham keng o'rin berilgan. Bu borada U.Tursunovning shogirdlari hamda safdoshlari tomonidan qator ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirildi. Kuzatishlar natijasi o'laroq bir qator monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, seriyali ilmiy maqolalar to'plamlari yaratildi.¹⁶

O'zbek tili fonetikasi taraqqiyoti masalalarini Samarqand olimlari ishtirokisiz tasavvur etish qiyin. Bu masalalarni o'rganishda Samarqand tilshunoslik vakillarining o'rnini bor. U.Tursunov va X.Doniyorovning "O'zbek tilidagi singarmonizm haqida" (1959),

¹⁶ Кўнғуров Р.,Каримов С.Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти. Самарқанд:СамДУ нашри, ;Каримов С.А.,Жўраев Т.Т. Ўзбек тили услубияти ва нутқ маданияти (библиографик кўрсаткич). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2001. - 6.60.

mualliflar jamoasining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1980) kabi ishlar fikrimizning isbotidir.

Samarqand tilshunoslarining turg‘un so‘z birikmalarini o‘rganish sohasida ham o‘ziga xos xizmatlari bor. Bu sohada U.Tursunov, H.Berdiyev, L.N.Royzenov, M.Husainov, A.Bushuy, B.Yo‘ldoshev kabilarning hissasi mavjud. H.Berdiyev o‘zining “O‘zbek frazeologiyasidan materiallar”, “O‘zbek frazeologiyasiga doir bibliografik ko‘rsatkich”, M.Husainov “Yozuvchi Oydin nasrining frazeologiyasi”, B.Yo‘ldoshevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyatlari”, “Frazeologiya tarixidan lavhalar”, “Frazeologik uslubiyat”, A.Mamatovning “Frazeologik stilistika masalalari”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari” nomli asarlarida frazeologiyaning tilshunoslar e‘tiborida bo‘lib kelgan bir qator dolzarb masalalari tahlil etilgan.

Ulug‘ Tursunov ilmiy faoliyatining bir qismi dialektologiya bilan aloqadordir. O‘zbek xalq shevalarini keng va har tomonlama o‘rganishda olimning ham xizmatlari singgan. O‘zbek tilshunosligida bu yo‘nalishdagi dastlabki tadqiqotlar Y.D.Polivanov tomonidan yakka holda amalga oshirilgan bo‘lsa, masalaning o‘ta muhim va dolzarbligi tufayli 1930-yilning ikkinchi yarmidan boshlab, Samarqand davlat universitetining bir guruh olimlari tomonidan Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi o‘zbek xalq shevalarini o‘rganishga bag‘ishlangan muntazam ravishda shevashunoslik ekspeditsiyalari tashkil etila boshlandi. Bunday sa’y-harakatlarning bevosita tashkilotchisi va rahbari U.Tursunov edi.

Mamlakatimizda yuqori malakali tilshunoslar tayyorlash masalasi Ulug‘ Tursunov faoliyatida yetakchi harakatlardan birini tashkil qiladi. Olimning bu faoliyati bevosita jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqea-hodisalar bilan bog‘liq. Ta’kidlash lozimki, urushdan keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligini rivojlantirish, uning o‘ziga xos qonun-qoidalari, mezonlarini ishlab chiqish bilan birgalikda oliy ta’lim tizimini ham bilimdon ilmiy-pedagogik kadrlar bilan ta’minlash kun

tartibida turgan dolzarb masalalardan biriga aylangan edi. U.T.Tursunov ana shunday vazifani bir qator shogirdlarni tilshunoslikning dolzarb masalalarini tadqiq etishga yo'llash bilan hal etishga harakat qildi. Ulug' Tursunov rahbarligi ostida 1949-yildan umrining oxirigacha 40 ga yaqin fan nomzodi yetishib chiqdi va mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida tilshunoslikning turli yo'nalishlarida kuzatishlar olib bordilar.

Tilshunoslikning dialektologiya sohasi bilan shug'ullanuvchi olimlar e'tiboridagi o'sha vaqtda muhim masalalardan biri o'zbek tilining dialekt va shevalarini tadqiq etishdan iborat edi. Chunki mazkur vazifani amalga oshirmasdan turib, o'zbek tili me'yoriy muammolarini tilning barcha sathlari bo'yicha hal etishda ma'lum bir qiyinchiliklarning tug'ilishi tabiiy edi. Tilshunoslikda ana shu talab va ehtiyojdan kelib chiqib, Ulug' Tursunov ilmiy rahbarligida M. Ahmedov (1962), M.Valiyev (1963), X.Jo'rayev (1975), N.Rajabov (1958), V.Egamov (1964), Y.O'razov (1966), X.Hamroyev (1970)lar tomonidan alohida monografik rejada ilmiy tadqiqotlar olib borildi va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Bunday kuzatishlar natijasida mamlakatimiz hududidagi jo'sh, nayman, turk-kaltatoy, Qarnab, G'allaorol, Janubiy Qoraqalpog'iston shevalari o'rganilib, o'zbek tili areal lingvistikasi qamrovidagi mavjud muammolarning ma'lum qismi o'z yechimini topdi. Bu izlanishlar orasida X.Hamroyevning "O'zbek xalq shevalarida fonetik jarayonlar" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi dialektologiya va fonetika sohalariaro tadqiqot sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

U.T.Tursunovning ilmiy faoliyatida grammatika muammolari ham g'oyatda salmoqli o'rin tutadi. Darhaqiqat, yangi materiallar, yangi tadqiqot usullari bilan boyib borayotgan o'zbek tilshunosligi oldida turgan masalalarni tadqiq etishning dialektologiyadan keyingi bosqichida adabiy tilning grammatik qurilishi bilan bog'liq masalalar tashkil qilar edi. Ulug' Tursunov bir qator shogirdlarini shu ulkan muammo sari yo'naltirdi. Uning rahbarligida 10 ta tadqiqotchi grammatik muammolar, xususan, morfologiya sathini tadqiq etish

bilan shug'ullanishdi. Ulardan F.Abdurahmonov 1950-yilda "Hozirgi o'zbek tilida substantivatsiya hodisasi" mavzuyida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. A.Sulaymonov (1949), F.Is'hoqov (1960), T.Xo'jaev (1963), K.Usmonov (1969), K.Xoliqovlar (1967) fe'l turkumiga oid muammolar tadqiqi bilan masalalarga oydinlik kiritgan bo'lsalar, I.Ziyoyeva otlardagi kelishik kategoriyasi (1966), Suyarov olmosh (1965) so'z turkumiga oid kuzatishlar olib bordilar. Olimning bevosita rahbarligi ostida yordamchi so'zlar ham ma'lum darajada ilmiy tahlilga tortildi. H.Berdiyev ko'makchilar (1949), J.Muxtorov bog'lovchilar (1953), R.Qo'ng'urov tasviriy so'zlar (1962) bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar.

Ulug' Tursunov shogirdlarining yana bir guruhi o'zbek tili grammatikasining ikkinchi qismi bo'lgan sintaksisning yetarli o'rganilmay qolgan masalalariga e'tibor qaratdilar. F.Ubayeva (1958), A.Abdullayev (1959), R.Sayfullayev (1960). X.Abdurahmonov (1964), M.Mo'minova (1965), O.Amirova (1967), B.O'rinboyev (1964), S.Ravshanova (1969), O.Isroilov (1971) kabi tilshunoslar tomonidan gap bo'laklari, so'z birikmasi, undalma, maqollar sintaksisi, hol, vokativ gap, qo'shma gap, o'zlashtirma gap singari sintaktik birliklar monografik rejada tadqiq etildi.

Shuningdek, U.T.Tursunov nazaridan tilshunoslikda muammolarga boy bo'lgan soha leksikologiyaga oid leksik-frazeologik birliklar tahlili ham chetda qolmadi. Uning shogirdlaridan T.O'rinov 1965-yilda "O'zbek tilida qo'ychilik terminologiyasi", M.Ro'ziqulova 1966-yilda "O'zbek tilida idiomatika" mavzularida nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishdi.

Ma'lumki, matn, uning turlari, lingvistik xususiyatlari bilan bog'liq masalalar tilshunoslik taraqqiyotining hamma davrlarida kun tartibiga qo'yib kelingan. U.T.Tursunovning ilmiy rahbarligida M.Xusainov Oydin (1959), U.Nosirov, Asqad Muxtor (1968), M.Tuychiev Shuhrat (1970) kabi adiblar asarlarining tili va uslubini o'rganish masalalari bilan shug'ullandilar. A.Hazratqulov dialogik

nutq (1966), S.A'zamov esa (1973) badiiy matnda faol qo'llanuvchi trop turlaridan biri hisoblangan epitetlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdilar.

Hozirgi o'zbek adabiy tili o'z lisoniy me'yorlar tizimining puxta ishlab chiqilganligi, adabiy til madaniyatining yuksak darajaga ko'tarilganligi bilan ajralib turadi. Adabiy til mezonlarining mukammalligi orfografiya mezonlarining yozma nutq ko'rinishlarida qay darajada amal qilishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yuqorida aytilganlardan Ulug' Tursunov o'z qarashlari bilan zamonasining mafkuraviy tazyiqlariga qaramasdan, tilshunoslikning barcha sohalari qatori imlo qoidalari takomillashishiga ham salmoqli ta'sir ko'rsatgan, degan xulosaga kelish mumkin.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI FONETIKASI,

IMLO VA TALAFFUZI MASALALARI

Ulug' Tursunovning fonetik qarashlari.

Prof. U.Tursunovning fonetikaga doir qarashlari "Hozirgi zamon o'zbek tilining ba'zi masalalari", "К вопросам развития узбекского литературного языка в советский период" nomli asarlarida o'z aksini topgan. Olimning qarashlarini umumlashtirgan holda qisqa tarzda quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Olim unlilar tasnifi haqida fikr yuritir ekan, "holatiga ko'ra" so'zidan oldin "gorizontal" va "vertikal" yoki o'zbekcha "yotiq" va "tik" atamalari qo'shib ishlatilsa, tuzukroq bo'lar edi¹⁷", degan fikrlarni olg'a surgan.

Tilning gorizontal (yotiq) holatiga, vertikal (tik) holatiga, lablarning ishtirokiga ko'ra o unlisi til orqa, keng, lablashmagan unli sifatida talqin etiladi. Lekin so'zlashuv nutqi, shevalarda o unlisi va boshqa unlilar o'z variantlariga ega. Shuning uchun "unlilar tasnifi sxemasini kengaytirib, fonemalarning pozitsion variantlari qavs ichida berilsa, sxema yana ham mukammallashtirilgan, variantlarni

¹⁷ Хозирги замон ўзбек тили. Лексикология, фонетика, графика, орфография ва морфология. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957. – Б. 15.

o‘quvchilarga tushuntirish esa osonlashtirilgan bo‘lar edi¹⁸”. Ushbu fikrlarning aytilganiga 60 yilga yaqin muddat o‘tgan bo‘lsa ham u bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Ulug‘ Tursunov tomonidan fonetikaga doir bayon qilingan fikrlar bugungi kunda ham yaratilayotgan darslik va qo‘llanmalarda yanada rivojlantirilmoqda. Bundan tashqari, unli va undosh tovushlar, ularning o‘zaro munosabati hamda farqlari haqida to‘xtalib, ular quyidagilardan iborat ekanligini ta’kidlaydi:

1. Unlilar odatda sof ovozdan iborat bo‘ladi. Shuning uchun ham ularda ohangdorlik yuqori turadi. Undoshlar esa shovqindan yoki shovqin bilan ovozning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi.

2. Unlilar talaffuz qilinganda o‘pkadan chiqqan havo og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramaydi. Undoshlar talaffuzida esa, havo og‘iz bo‘shlig‘ida biror to‘siqqa uchraydi.

3. Unlilar og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchramaganligi sababli ularni istagancha cho‘zib talaffuz qilish mumkin. Undoshlar talaffuzini cho‘zib bo‘lmaydi, bunga biror to‘siq halaqit beradi. Olim tomonidan ko‘rsatilgan unli va undosh tovushlarning o‘zaro farqlari bugungi kunda yaratilgan “Hozirgi o‘zbek tili” darsliklarida ham deyarli aynan takrorlanmoqda.

Olim undoshlar tasnifining o‘ziga xos prinsiplarini o‘rganish ma’lum qoidaga asoslanishini ta’kidlab, ularning umumiy bo‘linishini tubandagicha tasavvur etadi:

1. Undoshlarning paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra xususiyatlari.
2. Aytilish usuliga ko‘ra bo‘linishi.
3. Tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra bo‘linishi.
4. Undoshlarning ovoz ishtirokiga ko‘ra bo‘linishi.
5. Tarkibiga ko‘ra bo‘linishi¹⁹.

Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi **f, p, v, l, k, h** undoshlarning o‘ziga xos xususiyatlari batafsil yoritilgan²⁰.

¹⁸ Турсунов У., Сулаймонов А., Бердиёров Х., Дониёров Х., Мухторов Ж., Ражабов Н., Самадов Қ. Ҳозирги замон ўзбек тилининг баъзи масалалари // А.Навоний номидаги Ўзбек давлат университетининг асарлари. Янги серия № 91. – Самарқанд, 1959. – Б. 15.

¹⁹ Ўша асар, 16-бет.

²⁰ Ўша асар, 17-бет.

Olimning tovushlar tasnifiga oid qarashlari keyingi yillarda yaratilgan ishlar uchun asos bo'lgan. Masalan, Sh.Rahmatullayev tomonidan yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida tovushlar til tovushlarining ovoz va shovqinning qatnashuvi asosida tasnif qilinadi va ovoz tovushlar, shovqin tovushlar, ovozli tovushlar, ovozdor tovushlar tarzida izohlanadi.²¹

Prof. U.Tursunov hozirgi o'zbek tilidagi so'zning fonetik strukturasi haqida ham qimmatli fikr bildirgan. O'zbek tilidagi o'zak morfemalarning fonetik strukturasi tarixiy jihatdan bir bo'g'inli monovokalizmga ega bo'lgan. Eng qadimiy va ko'p uchraydigan bo'g'in **undosh+unli+undosh (SVS)** bo'lib, undan boshqa tipdagi bo'g'inlar hosil bo'lgan: **(S) VS, SVSS, (S) VSS, SV(S), (S) V (S)**. Bunda SVS birlamchi sanaladi.

Har bir tilda so'z fonetik tuzilishining o'ziga xos qoliplari mavjud. Til leksik tarkibining asosiy qismi shu qolipga bo'ysunadi. Lekin bu xildagi so'zlar fonetik jihatdan o'zgarishi mumkin. O'zbek tilidagi so'zlarning struktur-tovush qayta tuzilishiga ta'sir qiluvchi omillar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tildagi so'zning yangi ma'nosini shakllantirishda yangi shakllarning o'rni kattadir.

2. Tildagi so'zning uslubiy talabga ko'ra neytral ma'no kasb etishi orqali.

3. So'z birikmasidan qo'shma so'zning shakllanishi.

4. Tilda mavjud bo'lgan fonetik qonuniyat asosida ro'y beruvchi metateza, unlilar reduksiyasi ta'siri.

5. O'zga tildan o'tgan so'zlarni moslashtirish²².

So'zning birinchi bo'g'inida biror unlining, odatda, tor unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishi reduksiya sanaladi. Prof. U.Tursunov o'zbek tilidagi unlilar reduksiyasi haqida gapirib, u tilda mavjud bo'lgan bir qancha fonetik omillar asosida vujudga kelishini uqtiradi. Ular: a) bo'g'in tuzilishi bilan; b) yondosh undoshlarning paydo bo'lish o'rni bilan; v) yondosh undoshning paydo bo'lish usuli bilan;

²¹ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 2006. Б.10-19.

²² Ўша асар, 190-бет

g) yondosh undoshning jarangliligi va jarangsizligi bilan; j) nutq uslubining to‘liq va to‘liqsizligi bilan.

So‘z semantik taraqqiyotida fonetik omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu fonetik omillar quyidagilardan iborat: 1) undosh tovushlarning tushishi; 2) undosh tovushlarning mosligi; 3) palatalizatsiya va tovushlarning oldlashishi; 4) tovushlarning tortishuvi; 5) tovushlarning bir vaqtda tushishi va almashinuvi; 6) metateza.

Keyingi yillarda nashr qilingan darslik va qo‘llanmalarda Ulug‘ Tursunov g‘oyalarining yetakchilik qilishi seziladi. Masalan, 1980-yilda nashr qilingan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida fonetikani tadqiq qilish mundariyasi tovush va harf, akustika, transkripsiya, unli va undoshlar tasnifi, nutqning fonetik bo‘linishi, urg‘u, kombinator va pozitsion o‘zgarishlar, singarmonizm kabi masalalarni o‘rganish tartibida ko‘rsatiladi.²³

Ma’lumki, singarmonizm qonuni haqidagi fikr “nazariya” sifatida eng avval Yevropa tilshunosligida paydo bo‘lgan edi. I.A. Boduen de Kurtene o‘z asarlarida singarmonizm qonuni faqat agglyutinativ tillargagina xos bo‘lmay, balki flektiv tillardan slavyan tillariga ham tegishlidir, degan fikrni olg‘a surgan edi. Prof. U.Tursunov “O‘zbek tilidagi singarmonizm haqida” (X.Doniyorov bilan hamkorlikda) ilmiy maqolasida singarmonizm qonuni haqida shunday yozadi: “Singarmonizm so‘zning asl ma’nosi unlilarning moslashuvi, ohangdoshligi, unlilar garmoniyasi demakdir. Singarmonizm qonuniga muvofiq so‘zlarda unlilar bir-biri bilan tilning gorizontol holatiga ko‘ra moslashadilar. Moslashish o‘zakdagi yoki so‘zning boshidagi unlining xarakteriga qarab bo‘ladi. Agar so‘zning o‘zagida yoki boshida til oldi yoki yumshoq unli kelsa, so‘zning qo‘shimcha qismida yoki affiksida ham til oldi unlisi kelishi shart. Aksincha, agar so‘zning boshida yoki o‘zak qismida til orqa unlisi (qattiq unli) kelsa,

²³ Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи, 1980.-227 б.

shu soʻzning oxirida yoki qoʻshimcha qismida ham til orqa unlisi keladi²⁴”.

Singarmonizmning ikki turi bor: tanglay garmoniyasi; lab garmoniyasi. U hodisa oʻzbek adabiy tilida yoʻq, oʻzbek tilining singarmonizmli jelashgan dialektida unlilar bir-biri bilan moslashib keladi. Olim singarmonizm hodisasi haqidagi fikrini davom ettirib, yana shunday fikr bildiradi: “Singarmonizm hodisasi aslida fonetik hodisa boʻlib, uning taʼsiri turkiy tillarning morfologiyasida ham uchraydi. Singarmonizm hodisasi shu til va dialektlar morfologik koʻrsatkichlarining oʻzaklardagi oʻqli tovush xarakteriga (qattiq va yumshoqdigiga) qarab ikkitadan to 8-12 tagacha va hatto undan ham koʻproq variantlarga ega boʻlib kelishida koʻrinadi. Masalan, oʻzbek tilining jelashgan dialektida koʻplik qoʻshimchasi **-lar** affiksining **-lor**, **-nar**, **-nor** kabi toʻrt varianti uchraydi. Bu hol jelashgan dialektdagi morfologik affikslarning hammasiga ham xosdir²⁵.” Mualliflar singarmonizmning kelgusi taqdiri haqida fikr bildirib, shunday xulosaga keladilar: “Singarmonizmning turkiy tillarda mavjudligi ham abadiy emas. Shuning uchun ham u turkiy tillarning “temir qonuni” boʻlib kelmagan va boʻla olmaydi ham. Biroq bu hodisani butunlay oʻrganmasdan ulotirib tashlash ham yaramaydi²⁶”. Mustaqillik davrida yaratilgan darslik va qoʻllanmalarda U.Tursunov qarashlarining toʻgʻri ekanligi olimlarning mazkur hodisani izohlashlarida ham koʻrinadi. X.Jamolxonov tomonidan nashr etilgan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligida singarmonizm hodisasi shunday izohlangan:” **Singarmonizm:** 1) qadimgi turkiy til va eski oʻzbek tilida singarmonizm (soʻz tarkibidagi oʻzak va qoʻshimchalarda unlilarning uygʻunlashuvi) mavjud boʻlgan. qiyos qiling: keldyʻyk (“kel” dagi “e” - old qator, ingichka unli + “-dyk” dagi “y” ham old qator, ingichka unli) va barduk (“bar”dagi “a” - orqa qator, yoʻgʻon unli+ “-duk” dagi “u” ham orqa qator yoʻgʻon unli). Bu

²⁴ Турсунов У., Дониёров Х. Ўзбек тилидаги сингармонизм ҳақида // Ўзбек ДУ асарлари. Янги серия №91. – Самарқанд, 1959. – Б. 37.

²⁵ Ўша ерда, Б. 43.

²⁶ Ўша ерда, Б. 43.

misollardagi unlilar til garmoniyasi qonuniyati asosida uyg'unlashgan. Kelip va korip so'z shakllarining birinchisida ("kel+ip"da) o'zak va qo'shimchadagi unlilar lablanmagan, ikkinchisida ("kor+yp" da) esa o'zak va qo'shimchadagi unlilar lablangandir. Demak, ikkinchi misolda unlilar lab garmoniyasi qonuniyati asosida uyg'unlashgan; 2) hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm o'z mavqeyini ancha yo'qotgan. Qiyos qiling: konlynyz (eski o'zbek tilida) – ko'nglingiz (hozirgi o'zbek adabiy tilda), koryp (eski o'zbek tilida) – ko'rib (hozirgi o'zbek adabiy tilida) kabi.

Izoh: singarmonizm qonuniyati hozirgi paytda qipchoq va o'g'uz dialektlariga mansub o'zbek shevalarida saqlangan: olgan (adabiy tilda)-alg'an (qipchoq lahjasi shevalarida), borgan (adabiy tilda) - barg'an (qipchoq lahjasi shevalarida), kelgän (adabiy tilda)-kelgän (qipchoq lahjasi shevalarida), o'ttiz (adabiy tilda) – ottuz (qipchoq lahjasi shevalarida), uyimga (adabiy tilda) - YyYmä (o'g'iz lahjasi shevalarida) kabi.”²⁷

U.Tursunov yuqoridagi qonuniyatlarga tayangan holda o'z tadqiqotlarida Alisher Navoiy asarlari tilidagi affikslar tarkibidagi unli va undoshlarga qarab, so'z o'zagidagi unlilar xarakterini aniqlashga alohida e'tibor qaratdi hamda shu asosda Alisher Navoiy asarlari tilining vokalizmi 9 unli fonemadan iborat, degan fikrni ilmiy jihatdan asoslab berdi. U shu bilan bog'liq holda Alisher Navoiy asarlari tilining dialektal asoslarini belgilashga intildi.

Ulug' Tursunov tomonidan yaratilgan darslik va qo'llanmalar o'zbek tili sathlarining deyarli barchasiga tegishli muammolarni qamrab oladi. Ushbu darslik va qo'llanmalarning qiyosiy tahlili olimning ilmiy faoliyati davomida materiallar tahlili tobora mukammallashib borganligi ma'lum bo'ladi. Buni darsliklarning quyidagi tahliliy jadvalida ham ko'rish mumkin:

²⁷ Жамолхонов Х.Хозирги ўзбек адабий тили.Тошкент,2005.Б.9.

Hozirgi zamon o'zbek tili (U.Tursunov, J.Muxtorov – Samarqand, 1960)	Hozirgi o'zbek adabiy tili (U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev. –Toshkent, 1965)	Hozirgi o'zbek adabiy tili (U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev –Toshkent, 1975)	Hozirgi o'zbek adabiy tili (U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev –Toshkent, 1992)
Leksikologiya			
Leksikologiya bo'yicha ma'lumotlar keltirilmagan.	Bu bo'limda leksikologiya bilan frazeologiya bo'limlarini birgalikda keltirgan. Frazeologiya leksikologiya tarkibida o'rganilgan. So'z lug'aviy birlik sifatida, leksik ma'no, uning tiplari, taraqqiyot yo'llari, monosemantizm va polisemitizm, leksik qo'llash, ma'no munosabatiga ko'ra turlari, shakliy tenglik hodisasi, lug'at sostavining tarixiy shakllanishi,	Bu asarda ham frazeologiya leksikologiya tarkibida o'rganilgan. Lug'aviy birliklarning semantik strukturasi, so'zning va iboraning semantik strukturasi, leksik ma'no, uning tiplari, taraqqiyot yo'llari, monosemiya va polisemiya, lug'aviy birliklarni ishlatilish doirasi, zamonaviyligi, nutq ko'rinishlariga xoslanganligi,	Bu asarda ham frazeologiya leksikologiya tarkibida o'rganilgan. Leksema va frazema til birligi sifatida, ifoda plani, mazmun plani, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, paronimiya, lug'aviy birliklarni ishlatilish doirasi, zamonaviyligi, nutq ko'rinishlariga xoslanganligi, lug'at boyligidagi o'z va o'zlashgan qatlamlar o'rganilgan.

	ishlatilish doirasi, zamonaviyligi, nutq ko‘rinishlari jihatdan xarakteristikasi o‘rganilgan.	lug‘at boyligidagi o‘z va o‘zlashgan qatlamlar o‘rganilgan.	
--	--	---	--

Qiyosiy tahlildan chorak asrdan ziyod vaqt ichida tilshunoslikning leksikologiya sohasida quyidagi o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi ko‘rinadi:

1. Leksikologiya va frazeologiya dastavval bir bo‘limda o‘rganilgan. Keyingi yillarda esa frazeologiyaning o‘rganilish doirasi kengaygan.

2. Atamalarning qo‘llanishida ham keskin o‘zgarish yuz bergan. Masalan, lug‘aviy birlik – leksema, frazeologik birlik – frazema.

3. So‘z va iboraning semantik strukturasi haqida fikr yuritilganda, keying yillardagi qo‘llanmalarda ifoda va mazmun plani inobatga olingan.

Imlo va talaffuzi masalalari.

XX asrning 20-30-yillarida ko‘proq imloga, uning qonun-qoidalariga, yozuvga ahamiyat berilgan bo‘lsa, keyinroq grammatikaga doir materiallar tahlil qilina boshlandi. 40-50 yillarda esa rus tilining ta’siri kuchli edi, ya’ni bu til qoliplari ona tilimizga olib kirildi va material unga moslashtirildi. Shu darajada bo‘ldiki, imlo va alifboga oid biror hodisa rus tilida bor bo‘lsa, bizning tilimizda ham topilardi. Agar unda bo‘lmasa, bizda ham yo‘q edi. Ana shunday davrda prof. U.Tursunov bunday andoza olishlarga qarshi qalam tebratib, o‘zining “O‘zbek tilining imlosini qulaylashtirish yo‘lida” (1933), “O‘zbek tilining hozirgi aktual masalalari to‘g‘risida” (1934), “O‘zbek orfografiyasi haqidagi bizning fikrlarimiz” (1952), “Ommabop orfografiya” (1956), “Yana orfografiya qoidalarining

ayrim kamchiliklari haqida” (1963) kabi asarlarini yozdi. Ularda olim imlo va alifbo bilan aloqador fikrlarini bayon etgan.

J harfini qanday soʻzlarda portlovchi affrikat (**Ch**), qanday soʻzlarda sirgʻaluvchi sof undosh (**J**) tarzida talaffuz qilish lozimligini oʻquvchilarga tushuntirish oson emas. Shunishg uchun oʻquvchilar bunday soʻzlarni yoppasiga bir xil talaffuz qilishga odatlanib qolmoqda. **J (dj, ch)** tovushlari tilimizda mustaqil ikki fonema va ularni alifboga alohida harf tarzida kiritish lozimligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Uni ajdodlarimiz bir necha asrlar davomida farqlab kelganlar. Arab alifbosini qabul qilgan forsiy va turkiy xalqlar oʻz tillariga moslab jiddiy oʻzgarishlar kiritganlar. Masalan, arabcha portlovchi affrikat undoshni ifodalovchi (**Ch**), sirgʻaluvchi sof undoshni ifodalovchi (**J**) harflarini qoʻshganlar. Shuningdek, **ong** soʻzidagi yaxlit **n** undoshini ikki harf (**n+g**) bilan ifodalash ham bu tovush ishtirok etgan soʻzlarning talaffuzi va imlosida turli kamchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, **koʻ-ngil, si-ngil, de-ngiz** kabi soʻzlarni koʻp oʻquvchilar **koʻn-gil, sin-gil, den-giz** tarzida talaffuz qiladilar va boʻgʻin koʻchirishda ham shunga amal qiladilar. Talaffuz va imlodagi bunday yanglishuv baʼzan soʻz maʼnosini toʻgʻri tushinishga halaqit beradi. Oʻzbek tilida eng koʻp qoʻllaniladigan faol fonemalardan boʻlmish **Ch** va **N** tovushlarining alifboda oʻz ifodasini topmaganligi oʻzbek grafikasining jiddiy nuqsonlaridan biri hisoblanishi lozim. Afsuski, bu holat lotin yozuvi asosidagi hozirgi oʻzbek alifbosida ham oʻz ifodasini topmagan.

Soʻzlarni toʻgʻri yozish va toʻgʻri talaffuz qilish masalasida oʻquvchilarni qiynab kelayotgan qiyinchiliklardan yana biri chuqur til orqa undosh **X** va boʻgʻiz undosh **H** masalasidir. Bu ikki xil tovush alifboda oʻxshash belgilar bilan berilgani sababli ular ishtirok qilgan soʻzlarni buzib talaffuz qilish va yozish hollari sodir boʻlmoqda. Maktab oʻquvchilarining yozma ishlarida yoʻl qoʻyilayotgan imlo xatolarining teng yarmi bu ikki tovushni farqlay olmaslik natijasida sodir boʻladi. Bunday tovushlar ishtirokida tuzilgan soʻzlarni yozuvda va talaffuzda farqlashni osonlashtirish uchun **hol** soʻzidagi boʻgʻiz

tovushini lotincha **h** (hash) bilan ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bu ikki tovush 30-yillarda noo‘xshash shakllarda, ya’ni **X** va **H** tarzida yozilgan, natijada ularning imlosi va talaffuzida hech qanday anglashilmovchiliklar bo‘lmagan. Masalan, **har** (har) o‘rnida hech kim **xar** (xar) yozmagan. Lotin yozuviga asoslangan hozirgi o‘zbek alifbosida bu narsa o‘z ifodasini topgan.

O‘zbek tiliga xos ba’zi tovushlarning ruscha harflarga diakritik belgi qo‘yib, **Q, F, O‘, H** kabi ifodalanishi yozuvda muayyan noqulaylik va qiyinchiliklarni tug‘dirishi haqida prof. U.Tursunov shunday yozadi: “Bu masala ba’zi kishilarga arzimaydigan kichik bir tortishuvdek ko‘rinishi mumkin. Aslida u nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lgan jiddiy problemadir²⁸”. Masalan, **jabr** va **janr** so‘zlari boshidagi turlicha talaffuz qilinadigan ikki tovushni farqlash uchun alifboga bir belgi (**Ch**) qo‘shib, o‘quvchilarga bir harfni ortiqroq o‘rgatish bu tovushlar ishtirokida tuzilgan ko‘plab so‘zlar talaffuzini o‘quvchilarga tushuntirish va uqtirishdan ming marta oson bo‘ladi. Bu masalaning amaliy tomonidir. Masalaning nazariy tomoni shundaki, milliy tilga xos **Ch, N, O‘, Q, G‘, H** kabi tovushlar o‘zbek tilida mustaqil fonema bo‘lib, juda yashovchandir. Albatta, milliy tilimizga xos xususiyatlar, tafovutlar o‘zgarmaydigan abadiy narsa emas. Ular vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Ammo hozir milliy tilga xos va amalda faol ravishda qo‘llanayotgan xususiyatlarga e’tibor bermaslik xato bo‘lur edi.

Ba’zi tilshunoslar alifbodan **ya, yu, ye, yo** harflari va ayirish, yumshatish belgilarini chiqarishni va ular o‘rniga **ya, yu, yo, ye** yozishni hamda apostrof belgisini qabul qilishni taklif qiladilar. Prof. U.Tursunov yozadi: “Bizningcha, bunday katta o‘zgarish yasashga ehtiyoj yo‘q Ayirish belgisini ishlatish o‘rinlariga aniqlik kiritilsa kifoya. Ana shunday mulohazalarga ko‘ra biz alifboga eng zarur bo‘lgan tovushlarni olish, ya’ni minimal o‘zgarishlar kiritish tarafdorimiz. Alifboni takomillashtirish uchun 2-3 harf qo‘shilsa, u murakkablashib ketadi deb cho‘chish ham mutlaqo asossiz²⁹.”

²⁸ Турсунов У. Ўзбек орфографияси ҳақидаги бизнинг фикрларимиз. —Самарқанд, 1952. Б.

²⁹ Турсунов У. К вопросу развития узбекского литературного языка в советский период. //

Hozirgi o‘zbek tili uning me‘yorlar tizimi, adabiy til madaniyatining yuksak darajaga ko‘tarilganligi bilan ajralib turadi. Adabiy til mezonlarining mukammalligi orfografiya mezonlarining mukammalligi bilan belgilanadi. Ulug‘ Tursunov o‘zbek orfografiyasini yanada mukammallashtirish uchun quyidagi omillarga amal qilish lozimligini ko‘rsatadi:

1. Vaqt va sharoit taqozosi bilan o‘zbek tili tizimida yangi so‘z va qoliplar paydo bo‘ldi, ularni to‘g‘ri yozish qoidalarini ishlab chiqish zarur.

2. O‘zbek tilining hozirgi holatiga mos ravishda “O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari”ni qayta ko‘rib chiqish.

3. O‘zbek tilining imlo lug‘atlarida yo‘l qo‘yilgan xatolarni bartaraf etish.

4. Tilda mavjud hodisalarni imlo qoidalariga singdirib bo‘lmasligini hisobga olish.

Tilshunoslikda muhim masalaalardan biri transkripsiya masalasidir. Nutq tovushlarini aniq ifodalash uchun ishlatiladigan yozuv transkripsiya sanaladi. Transkripsiya mezonlariga ko‘ra so‘zlar qanday eshitilsa, shunday yozib olinadi. Transkripsiyada hamma vaqt bir tovush bir harf (belgi) bilan beriladi. Transkripsiyada asosiy belgilar bilan bir qatorda diakritik belgilar ham ishlatiladi. Transkripsiyada orfografiyada qabul qilingan bayon alomatlari, nuqtalar ko‘pincha boshqa ma’nolarda qo‘llanadi. Masalan, bahor so‘zi transkripsiyada ba:or deb yoziladi. Bunda so‘zdagi ikki nuqta a unlisining cho‘ziq talaffuzini ko‘rsatadi.

Prof. U.Tursunov hozirgi o‘zbek tilidagi traskripsiya sistemasi haqida fikr yuritib, bu sohada ham kamchilik va nuqsonlar mavjudligini ta’kidlab shunday yozadi: “Adabiy-orfografik **i** fonemasining o‘zini ifodalash uchun olti belgi qo‘llanilgani holda, Toshkent va Samarqand shevalari orasidagi “o” fonemasining sezilarli darajada farq qilishiga qaramay, ular bir belgi (“ ” belgisi) bilan

ifodalangan. Bizningcha, Samarqand, Buxoro shevasiga xos bo'lgan lablangan “o” unlisi “ ” belgisi bilan, Toshkent va Farg'ona shevalaridagi lablanmagan “o” unlisi esa “a” belgisi bilan ifodalansa yaxshi bo'lar edi. Agar transkripsiya sistemasida belgilar sonini ko'paytirib yubormaslik nazarda tutilgan bo'lsa, “i” ni qisqartirish mumkin. Chunki, “i” fonemasi orasidagi farqlar “o” unlisining variantlariga karaganda ancha kam va kuchsizdir³⁰.”

Xullas, fonetik transkripsiya dialektologik ishlarda qo'llanadi. Uning vazifasi tildagi tovushlarni mumkin qadar to'liq va barcha nozikliklari bilan ifodalashdir. Xulosa qilib aytganda, prof. U.Tursunovning fonetika masalalariga bag'ishlangan qarashlari quyidagilardan iborat:

1. Ma'lumki, hamma tillardagi tovushlar, avvalo, ikki guruhga bo'linadi: unlilar va undoshlar. Tildagi so'zlarning asosiy qismi unlilar bilan undoshlarning o'zaro birikishi natijasida hosil bo'ladi. Unli va undoshlar tasnifiga doir qiziqarli fikrlar bildirilgan.

2. So'z fonetik tuzilishining o'ziga xos qoliplari, leksik tarkibining asosiy qismi shu qolipga bo'ysunishi, so'zlarning struktur-tovush qayta tuzilishiga ta'sir qiluvchi omillar haqida mulohaza yuritadi.

3. So'zning birinchi bo'g'inida biror unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishi bilan aloqador reduksiya hodisasi haqidagi mulohazalari.

4. So'z semantik taraqqiyotiga ta'sir etuvchi fonetik omillar to'g'risidagi fikrlari mavjud.

5. O'zbek tilidagi singarmonizm, urg'u va til tovush tuzilishining o'zaro munosabati masalalari.

6. Hozirgi o'zbek adabiy tili orfografik mezonlarini tartibga solish muammolari.

7. Nutq tovushlarini aniq ifodalash uchun ishlatiladigan yozuv-transkripsiya masalalari.

¹ Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги замон ўзбек тилининг баъзи масалалари. 18-20-бетлар.

O‘ZBEK TILI FRAZELOGIYASI MUAMMOLARI

U.Tursunov frazeologiya sohasi bilan maxsus shug‘ullanmagan bo‘lsa-da, o‘zining badiiy asar tili, uslubiyat va adabiy til tarixiga oid ilmiy ishlarida, o‘quv qo‘llanmalarida frazeologizmlar, ularning struktural-grammatik va uslubiy xususiyatlari haqida qimmatli fikr-mulohazalarni bildirgan edi. Masalan, olim N.Rajabov bilan hamkorlikda yozgan “O‘zbek tili leksikasining ba’zi masalalari” nomli asarida frazeologik sinonimlar, ularning leksik-frazeologik sinonimlardan farqi masalasiga alohida to‘xtaladi. Asarda ta’kidlanishicha, “frazeologizmlarda sinonimlarni belgilashda iboralarning ayni bir ma’noni anglatishi, shu bilan bir vaqtda boshqa-boshqa obrazga suyanishi, o‘ziga xos ma’no ottenkasiga, stilistik buyoqqa ega bo‘lishi hisobga olinadi: **ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug‘igacha**³¹. Bu ishda frazeologizm bilan so‘z orasida ham sinonimik munosabat mavjudligi ta’kidlanib, bu hodisa leksik-frazeologik sinonimlar deb nomlangan hamda leksik-frazeologik sinonimlarda dominanta rolini so‘z bajarishi quyidagi misollar yordamida ochib berilgan: **avj olmoq – zo‘raymoq, kuchaymoq, adi-badi aytishdi - janjallashdi; almisoqdan qolgan - qadimgi; anqoning tuxumi - kamyob; bir og‘iz - jindak, qittak kabi**³². Shuningdek, tadqiqotda biror tushunchani frazeologizm bilan anglatish odatdagi so‘z bilan ifodalashga nisbatan obrazli, o‘tkir va ta’sirchan bo‘lishi ham alohida ta’kidlab ko‘rsatilgan. Bu asarda **to‘ng‘iz qo‘pmoq, jahannam qa’riga ketmoq** singari frazeologik sinonimlar badiiy nutqda muhim uslubiy vosita bo‘lib xizmat qilganligiga oid tegishli misollar keltirilgan³³.

U.Tursunov o‘zbek adabiyotining Alisher Navoiy, Bobur, Muqimiy, Furqat, Hamza, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Uyg‘un, Sharof Rashidov singari ulkan siymolari tili va uslubiga doir

³¹ Турсунов У., Ражабов Н. Ўзбек тили лексикасининг баъзи масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1971.- Б.118.

³² О‘sha asar. - Б.119.

³³ О‘sha asar. - Б.122.

teran kuzatishlar olib borish jarayonida bu soʻz sanʼatkorlarining frazeologizmlardan foydalanish mahoratini yoritishga alohida diqqat qilgan edi. Jumladan, olim oʻz shogirdi X.Doniyorov bilan hamkorlikda yaratgan bir maqolasida shoir Hamid Olimjonning frazeologizmlardan foydalanish mahorati haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. “Taʼlantli adib, - deb taʼkidlanadi mazkur maqolada, - vazn oʻlchovini toʻgʻrilash uchun turgʻun birikmalarni, frazeologizmlarni ularning maʼnosini buzmagani holda yoki kengaytirib, yoki qisqartirib, yohud formasini oʻzgartirib qoʻllaydi”. Bu fikrni tasdiqlash uchun maqolada **“hayot suvini ichirmoq”** frazeologizmi **“hayot ichirmoq”** tarzida qisqartirib qoʻllangani taʼkidlanadi³⁴.

Keyingi oʻttiz yil ichida oʻzbek xalqining frazeologik boyligini toʻplash va uni lugʻatlarda aks ettirish sohasida qator ishlar amalga oshirildi. Bunga U.Tursunov bir tomlik “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat” (1959)ni va besh tomlik “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (1955)ni dalil sifatida keltiradi, chunki bu ishlarda tilimizning minglab iboralari toʻplangan hamda izohlangan edi. Lekin bu ishlar hali oʻzbek frazeologiyasi oldida turgan ulkan vazifalarning debochasi sanaladi. Prof. U.Tursunov toʻgʻri taʼkidlaganidek, mamlakatimizda bu sohadagi leksikografik ishlarning rivoji birinchi navbatda frazeologiyani amaliy muammolari bilan shugʻullanishni taqozo etadi, yaʼni respublikada oʻzbek tilining frazeologik lugʻati hamda oʻzbekcha-ruscha, ruscha-oʻzbekcha, oʻzbekcha-tojikcha kabi ikki tilli frazeologik lugʻatlar tayyorlanishi va nashr etilishi lozim. Bunday ishlarni oqilona amalga oshirish uchun eng avvalo mamlakatimizda frazeologiya nazariyasiga doir ishlarni jiddiy yoʻlga qoʻyish lozim boʻladi³⁵.

U.Tursunov 50-yillarning oxirigacha oʻzbek tilshunosligida amalga oshirilgan ishlarni birma-bir tahlil etadi. Jumladan, Sh.Rahmatullaevning 1952-yilda Moskvada hamoya qilingan “Hozirgi

³⁴ Турсунов У., Дониёров Х. Шоирнинг поэтик тили ҳақида // Ленин йўли, 1959 йил 25 декабрь.

³⁵ Турсунов У. Состояние и задачи изучения фразеологии узбекского языка // Вопросы фразеологии. Труды СамГУ, новая серия, выпуск 106. – Самарканд, 1961. –Б. 7-11.

o‘zbek tilida obrazli fe’l frazeologik birliklarning grammatik xususiyatlari” mavzuidagi nomzodlik ishi o‘zbek tilshunosligida frazeologiyaga doir dastlabki monografik tadqiqot sanaladi. Bu ishning qator yutuqlaridan ko‘z yummagan holda U.Tursunov undagi asosiy nuqson - tilimizning frazeologik boyligini akademik V.V.Vinogradovning tor sxemasiga moslashtirishda ko‘rinishini ta’kidlaydi. Shundan keyin hamoya qilingan Y.D.Pinxasovning “Hamid Olimjon asarlarida frazeologik iboralar” (1953) va A.Shomaqsudovning “Muqimiy satirasining tili” (leksika va frazeologiya, 1956) mavzuidagi nomzodlik ishlarida ikkinchi bir nuqson - umumtil (adabiy til) frazeologiyasi bilan individual-avtor (muallif) frazeologiyasi orasidagi munosabat masalasi aniq farqlanmagan ko‘rinadi. Bu ishlarda, deydi,- U.Tursunov, - iboralarning sof lingvistik tahlili bilan lingvostilistik tahlil aralashtiriladi. Olim tomonidan o‘z vaqtida sezilgan bunday nuqson o‘zbek lingvostilistikasiga oid keyingi ishlarda ham uchrab turadi³⁶.Buni quyidagi sxemda ko‘rish mumkin:

Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek tilida obrazli fe’l frazeologik birliklarning grammatik xususiyatlari.	Pinxasov Ya.D. Hamid Olimjon asarlarida frazeologik iboralar	Shomaqsudov A. Muqimiy satirasining tili
frazeologik boylikni akademik V.V.Vinogradovning tor sxemasiga moslashtirish	umumtil (adabiy til) frazeologiyasi bilan individual- muallif) frazeologiyasi orasidagi munosabat masalasi aniq farqlanmagan	umumtil (adabiy til) frazeologiyasi bilan individual-muallif) frazeologiyasi orasidagi munosabat masalasi aniq farqlanmagan
iboralarning sof lingvistik tahlili bilan lingvostilistik tahlil aralashtiriladi		

³⁶ Маматов А. Фразеологик стилистика масалалари.- Тошкент: Фан, 1991. –Б.6-10.

Bu ishlar qatoriga Sh.Rahmatullaevning nomzodlik dissertatsiyasi materiallari asosida tayyorlangan “Frazeologik birliklarning-asosiy ma’no turlari” (1955) nomli risolasi va “Hozirgi zamon o‘zbek tili” (1957) asari tarkibidagi “Frazeologiya” qismini (bu qismning muallifi ham Sh.Rahmatullaev sanaladi) kiritsak, 50-yillar oxirigacha o‘zbek tilshunosligida frazeologiya bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar ko‘lami nihoyatda oz ekanligi o‘z-o‘zidan ravshan bo‘ladi.

Shundan keyin U.Tursunov o‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasida kelgusida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlarni ta’kidlab ko‘rsatadi: eng avvalo, respublikamizda o‘zbek frazeologiyasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi markaz tuzilishi lozim. Bu markaz quyidagi masalalarni hal etishga e’tibor qaratishi zarur: a) mamlakatimiz tilshunosligida, turli oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek frazeologiyasi bo‘yicha olib borilayotgan barcha ilmiy-tadqiqot ishlarini hisobga olish, ularning bibliografiyalarini tuzish va nashr etish talab qilinadi; b) frazeologiyaga doir yirik ilmiy-tadqiqotlarni bajarishni rejalashtirish va uni amalga oshirish; v) o‘zbek tilining turli hajmdagi frazeologik lug‘atlarini tayyorlash; g) o‘zbek tilining to‘la frazeologik lug‘atini tuzish uchun materiallar to‘plash va ularni sistemalashtirish; d) frazeologiya bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi markaz muntazam ravishda byulletenlar chiqarishi, bunda mazkur soha bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va keyingi vazifalar o‘z aksini topishi zarur.

U.Tursunov bu ishida o‘zbek frazeologiyasiga doir kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muammolarni ham birma-bir sanab ko‘rsatgan edi:

1. Mashhur badiiy asarlar misolida o‘zbek adabiy tilining frazeologik boyligini to‘plash hamda sistemali va rejali o‘rganishni yo‘lga qo‘yish zarur.

2. O‘zbek adabiyoti tarixining taniqli namoyandalari, xususan, Alisher Navoiy asarlari frazeologiyasini o‘rganish o‘z navbatida yangi soha - o‘zbek tilining tarixiy frazeologiyasini tadqiq etish keng yo‘l ochar edi.

3. O'zbek xalq og'zaki so'zlashuv tili va dialektal frazeologiyasini o'rganish sohasida ham qator ishlar amalga oshirilishi lozim bo'ladi.

4. Frazeologik lug'atlarni tayyorlash va nashr yetishga keng ziyolilar ommasini, jumladan, iqtidorli talabalarni ham jalb etish maqsadga muvofiqdir.

5. O'zbek tili frazeologiyasining boyish yo'llari va manbalari, uning tarkibi haqida hozircha o'zbek tilshunosligida yirik tadqiqotlar yaratilmagan.

6. Turkiy tillarning qiyosiy frazeologiyasi sohasida ilmiy izlanishlarni yo'lga qo'yish uchun turkiy filologiya bo'yicha ish olib borayotgan tilshunoslar, adabiyoshunoslar, folklorshunos, tarixchi va arxeologlarning ilmiy-ijodiy hamkorligi juda ham zarurdir.

7. Frazeologiya sohasida umumnazariy masalalarni hal etishga alohida e'tibor qilmasdan turib, o'zbek tili frazeologiyasi bo'yicha keng va chuqur ilmiy izlanishlar olib borish mumkin emas³⁷.

O'z vaqtida professor Ulug' Tursunov tomonidan sanab o'tilgan bunday muammolarning asosiy qismi hozirgi kunga qadar o'zbek frazeologiyasi sohasi uchun dolzarbligicha qolib kelayotganligini e'tirof etgan holda olimning fonetika sohasidagi xizmatlariddan biri u unli va undoshlar tasnifiga doir qiziqarli fikrlarini o'zbek tili materiallari asosida isbotlab berganligida ekanligini ta'kidlash joiz. Uning yuqorida qayd etilgan ishlarida so'z fonetik tuzilishining o'ziga xos qoliplari, leksik tarkibining asosiy qismi shu qolipga bo'ysunishi, so'zlarning struktur-tovush qayta tuzilishiga ta'sir qiluvchi omillar ilmiy dalillar bilan asoslab berilgan. Shuningdek, olimning so'zning birinchi bo'g'inida biror unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishi bilan aloqador reduksiya hodisasi, so'z semantik taraqqiyotiga ta'sir etuvchi fonetik omillar to'g'risidagi fikrlari keyingi yillarda yaratilgan tadqiqotlarda yanada rivojlantirildi.

³⁷ Турсунов У. Состояние и задачи изучения фразеологии узбекского языка // Вопросы фразеологии. Труды СамГУ, новая серия, выпуск 106. – Самарканд, 1961. –Б. 10-11.

Ulug' Tursunovning bu sohadagi yana bir ulkan xizmati uning o'zbek tilidagi singarmonizm hodisasi, urg'u va til tovush tuzilishining o'zaro munosabati masalalariga aniqlik kiritishi bo'ldi. Olimning bu qarashlari keyinchalik prof. X.Doniyorov tomonidan izchil davom ettirildi.

Bundan tashqari, Ulug' Tursunovning ilmiy faoliyati bevosita terminologiya bilan ham bog'liq. Olimning bu sohadagi kuzatishlari o'sha davrda terminologiyani ma'lum ilmiy asosga solish, terminlarni me'yorlashda bir xillikka erishish ishining yetarli emasligidan darak berib turibdi. Mazkur murakkab muammoni ijobiy hal qilish uchun terminologiya sohasida o'zbek tilshunosligida erishilgan barcha yutuqlarni atroflicha o'rganish, ulardagi foydali tomonlarni ilmiy umumlashtirish muhim ekanligi olim tomonidan ilgari surilgan va bu muammo bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Mana shu ma'noda o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 1925-40 yillarida bu sohada amalga oshirilgan ishlarga baho berishda Ulug' Tursunov ilmiy merosi ma'lum ahamiyat kasb etadi.

ULUG' TURSUNOV VA O'ZBEK TILI TARIXI MUAMMOLARI

O'zbek tili tarixining, o'zbek tili tarixiy grammatikasining ayrim muammolarini ilmiy jihatdan yoritishni XIX asrning ikkinchi yarmida N.I. Ilminskiy boshlab bergan edi. Uning ishini keyinchalik, XX asr o'rtalariga qadar A.N.Samoylovich, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, K. Brokkelman kabi olimlar davom ettirdilar.

O'zbek tilini tarixiy jihatdan o'rganish XX asrning 50- yillaridan boshlab yanada jonlanib ketdi. Bu davrda Moskva, Sankt-Peterburg ilmiy markazlarida A.N.Kononov, Ye.N.Najib, S.N.Ivanov, G.F.Blagova, A.M.Shcherbak kabi rus turkolog olimlarining ilmiy tadqiqotlarini alohida ta'kidlab ko'rsatish o'rinli bo'lur edi. Bu sohada O'zbekiston tilshunos olimlari tomonidan olib berilgan va natijalari e'lon qilingan ilmiy tadqiqot ishlari ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Agar dastlabki yillarda o‘zbek olimlarining diqqat-ye’tibori u yoki bu yozma manbaning til xususiyatlarini yoki tarixiy jarayonning ma’lum bir bosqichida amalda bo‘lgan eski o‘zbek tilining fonetik, leksik, grammatik belgilarini tavsiflashga qaratilgan, keyinchalik konkret bir til hodisasining davrlar osha tarixiy taraqqiyotini va tilning turli sathlarida sodir bo‘lgan siljishlar tarixini yoritishga bag‘ishlangan yirik umumlashma ishlar paydo bo‘ldi.

Tilda mavjud so‘z boyligini, morfologiya, fonetika sohalarining bevosita tarixiy taraqqiyotini o‘rganish esa o‘zbek tili tarixini aniqlash, shuningdek, bu imkoniyatlar ichki va tashqi tomondan til taraqqiyotida muhim o‘lchov bo‘lganligi bilan izohlanadi. Tilshunoslikda o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatib berish bilan bir qatorda, o‘zbek tilining ichki o‘zgarishlarini sheva va dialektlar ta’siri ostida bo‘lganligini aniqlash orqali ko‘rsatib berilgan.

Ulug‘ Tursunovning B.O‘rinboev bilan hamkorlikda yaratilgan “O‘zbek adabiy tili tarixi ocherklari³⁸” asarida o‘zbek adabiy tili tarixi kursi birinchi bor to‘la tavsiflab berilgan. Oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun mo‘ljallangan bu asarda o‘zbek adabiy tili tarixi kursining predmeti va vazifalari, o‘zbek tili va uning tarixiy ildizlari, o‘zbek xalq tili va uning taraqqiyoti, o‘zbek xalq tilining takomillashishi va unda Alisher Navoiyning roli, o‘zbek adabiy tilining Navoiydan so‘nggi taraqqiyoti, o‘zbek milliy tili, uning shakllanishi va rivojlanishiga oid muammolar o‘z aksini topgan. Shu bilan birga adabiy til qurilishida bo‘lgan o‘zgarishlar, til ijtimoiy vazifasining kengayishi, bunda ichki va tashqi omillarning ta’siri, adabiy til uslublari tizimida bo‘lgan o‘zgarishlar va unga ta’sir qiluvchi har bir uslub uchun xarakterli bo‘lgan leksik, frazeologik, morfologik va sintaktik vositalarning roli haqidagi fikrlar bayon etilgan.

³⁸ Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи очерклари. –Тошкент, 1969.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ma'lum bo'ldiki, U.Tursunovning o'zbek tili tarixini o'rganish sohasidagi asosiy qarashlari quyidagilardan iborat:

1. Olim boshchiligida yaratilgan tadqiqotlarda "O'zbek adabiy tili tarixi" kursining maqsadi, vazifasi muayyan darajada aniqlashtirilgan.

2. O'zbek adabiy tilini davrlashtirishning yangicha talqini ishlab chiqilgan.

3. O'zbek adabiy tilining shakllanishida boshqa tillarning ishtiroki misollar asosida tahlilga tortilgan.

4. Ulug' Tursunov kuzatishlarida o'zbek adabiy tili taraqqiyotida yozma obidalar va so'z san'atkorlarining o'rni misollar asosida ko'rsatib berilgan. Shu jarayonda har bir davrning o'ziga xos tili va uslubiy xususiyatlari to'g'risida muayyan xulosalarga kelingan.

O'ZBEK TILINING TARIXIY GRAMMATIKASI

Ulug' Tursunov ilmiy faoliyatining ma'lum qismi o'zbek tilining tarixiy grammatikasi bilan bog'lanadi. Olimning kuzatishlaridan ma'lum bo'lishicha, til tarixiga analitik yondoshilganda bir - biridan farq qiladigan, lekin bir - biri bilan ma'lum darajada bog'liq bo'lgan ikki mustaqil soha ajralib chiqadi. Shulardan biri tarixiy grammatika, ikkinchisi adabiy til tarixidir. Bularning har qaysisi o'z tekshirish obektiga, mazmuniga, maqsadiga va tadqiq metodlariga ega.

Ulug' Tursunovning tarixiy grammatikaga oid kuzatishlari tarixiy fonetika, tarixiy morfologiya, tarixiy sintaksis kabi ichki sohalar bilan bog'lanadi. Tarixiy grammatikada tilning qurilshi materiallari, ya'ni tarkibiy elementlari tarixi o'rganiladi. Boshqacha qilib aytganda, tildagi tovushlar, grammatik shakllar va sintaktik qurilmalarning taraqqiyot tarixi tarixiy grammatikaning o'rganish predmeti hisoblanadi.

Tilning tarixiy grammatikasiga tegishli masalalarni o'rganishda olim, avvalo, o'zbek tili mansub bo'lgan turkiy tillar guruhining,

aniqrog'i qarluq - qipchoq - uyg'ur guruhining dastlabki holati qanday bo'lganligini aniqlab olishga harakat qilgan. Olimning tarixiy grammatikaga oid ishlarida qarindosh tillar guruhiga asos bo'lgan bobo tilning asosiy xarakterli xususiyatlari, uning unli va undosh tovushlar tizimi, eng muhim morfologik va sintaktik belgilari aniqlab olingandan keyin shu nuqta va unga tegishli bo'lgan ma'lum bir tarixiy davrdan boshlab til qurilishida sodir bo'lgan tarixiy o'zgarishlar xronologik tartibda birma-bir berilishi kuzatiladi.

Tildagi fonetik va grammatik elementlarning eng qadimgi ko'rinishi tarixiy-qiyosiy metod asosida aniqlab olingandan so'ng uning davrlar osha qanday o'zgarishlarga uchraganligi to'g'risida asosli fikrlar bayon qilingan. Buning uchun til taraqqiyotining turli davrlariga mansub bo'lgan yozma manbalarda aks etgan til faktlariga, dialekt va shevalarda saqlanib qolgan qadimiy elementlarga hamda urug'dosh turkiy tillar materiallariga suyanib, ularni hisobga olgan holda ish ko'rilganligi Ulug' Tursunov asarlarida yaqqol bo'rtib turadi.

Turkiy xalqlar tarixida shunday adabiy tillar bo'lganki, ular bir necha xalqlarga xizmat qilgan. Bunga namuna sifatida turkiy adabiy tilni ko'rsatish mumkin. Turkiy adabiy til yarim sun'iy adabiy til bo'lib, avval bir necha turkiy xalqlar orasida ishlatilgan edi. Shuning uchun konkret bir turkiy adabiy til tarixi o'rganilganda o'sha turkiy adabiy tilni hisobga olish kerak bo'ladi. Bu yo'nalishda tadqiqot olib borishda juda ehtiyotkorlik, zukkolik talab etiladi. Buning uchun inkor qilib bo'lmas dalillar talab etiladi. Til faktlariga bunday yondashuv Ulug' Tursunov ilmiy uslubiga xosdir.

Til tarixi va xalq tarixi o'zaro chambarchas bog'liq. Ularni o'zaro aloqadorlikda o'rganish to'g'ri xulosalar chiqarishga asos bo'ladi. Lekin bunday talab tarixiy grammatika oldiga emas, adabiy til tarixi oldiga qo'yiladi. Adabiy tilning shakllanish va rivojlanish tarixini madaniy-tarixiy jarayon tarixi bilan albatta bog'lab o'rganish kerak. Tarixda bo'lib o'tgan turli voqea-hodisalarga doir faktlarni hisobga olgan holda qachon va nima sababdan u yoki bu adabiy til paydo

bo'ldi, qanday sosial kuchlar, ijtimoiy qarashlar, poetik maktablar va yo'nalishlar adabiy tilning rivojlanishiga qulay sharoit yaratib berdi yoki uning taraqqiyotiga to'siq bo'ldi, ular adabiy tilga qay darajada ta'sir ko'rsatdi, qaysi shoir- yozuvchilar ijodi adabiy tilning yanada takomillashuviga yordam berdi degan masalalarni hal qilish zarur. Shunga o'xshash tarixiy faktlar hisobga olingan taqdirdagina adabiy tilning shakllanish xususiyatlari to'g'risida muayyan xulosalarga kelish mumkin.

Jamiyat hayotida sodir bo'lgan siyosiy-sosial o'zgarishlar adabiy tilga ta'sir qilishi tabiiy, lekin u grammatikaga ta'sir qilmaydi. Aytaylik, qadimgi turkiy bobo tilda - **dan** qo'shimchali chiqish kelishigi yo'q edi. - **da** qo'shimchasiga ega bo'lgan o'rin-payt kelishigi chiqish kelishigi uchun ham xizmat qilar edi. Masalan: **aningda** ("unda"), **aningda biri** ("undan biri"). -**dan** qo'shimchali chiqish kelishigi tilda keyinroq paydo bo'ldi. Uning paydo bo'lishi jamiyatdagi, xalq tarixidagi hech qanday o'zgarish bilan bog'liq emas. Yoki so'z boshida keladigan [**y**] tovushi turkiy tillarda har xil reflekslarga ega. Bu tovush ba'zi tillarda saqlanib qolgan bo'lsa (masalan, o'zbek, ozarbayjon tillarida **yo'l**), qozoq tilida **ж** tovushiga (**жul**), qirg'iz tilida **j** tovushiga (**jo'l**) aylangan. Bunday fonetik hodisani ham xalq tarixining biror aniq fakti bilan izohlab bo'lmaydi.

Yozma obidalarni o'rganish bilan shug'ullanadigan adabiy til tarixi tarix fakti sifatida yuzaga kelgan til hodisalariga asoslanadi. Lisoniy hodisalar va tushunchalar paydo bo'lishi va shakllanishi olis davrlarga borib taqaladi, ular bizgacha yetib kelgan yozma obidalarda aks etmagan va bizga noma'lum bo'lishi mumkin. Til tarkibidagi bunday o'zgarishlar ma'lum tarixiy voqea-hodisalarga bog'liq emas.

Adabiy til tarixi turli uslublar tarixi bilan ham shug'ullanadi. Tildagi vazifaviy uslublar adabiy tilning alohida ko'rinishlari bo'lib, ular adabiy tilning amalda turli sohalarda qo'llanishi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, adabiy til o'ziga xos ijtimoiy vazifani bajaradi. Bu vazifa adabiy til konkret uslubining leksik va grammatik jihatdan o'ziga xos bo'lishini ta'minlaydi.

Tilning qurilish elementlari tarixini o'rganishning maqsadi va vazifasi adabiy til tarixini o'rganishning maqsad va vazifasidan tubdan farq qiladi.

Tilning qurilish elementlarini o'rganishda tovushlar, grammatik formalar va sintaktik konstruksiyalar tarixi kuzatiladi. Bunda avvalo turkiy til guruhlarining shakllanishida asos bo'lgan eng qadimgi bobo tilni, uning vokalizmini, eng muhim morfologik va sintaktik xususiyatlarini aniqlab olish, ya'ni tayanch nuqtani belgilab olish zarur bo'ladi. Ana shu tayanch nuqta, u yoki bu hodisaning mohiyati aniqlab olingandan so'ng til qurilish elementlarining evolyusion tarixi kuzatiladi.

Ulug' Tursunov kuzatishlaridan ma'lum bo'ladiki, adabiy til tarixi o'rganilganda masalaga bunday yondashilmaydi. Bunda tadqiqot jarayonida adabiy til taraqqiyotining eng dastlabki davriga aniqlik kiritiladi. Shu davrdan boshlab adabiy til qanday taraqqiy etib kelganligi, qaysi davrlarda adabiy tilning qanaqa uslublari shakllanib, rivojlanganligi va ularning fikrni ifodalashdagi o'ziga xos xususiyatlari tarixan qanday o'zgarib borganligiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Adabiy til tarixi tovushlarning, grammatik formalarning va sintaksistik konstruksiyalarning kelib chiqishi muammolari bilan shug'ullanmaydi. Bu muammolar faqat adabiy til qaysi dialektlar bazasida shakllanib rivojlanganligini aniqlashdagina kerak bo'ladi, lekin adabiy til tarixi dialektlarning o'zini o'rganish bilan shug'ullanmaydi. Masalan, o'zbek adabiy tilida - **ajak** qo'shimchasi bilan yasalgan **borajak**, **kelajak** kabi qat'iy kelasi zamon fe'lining kelib chiqishi - sof lingvistik muammo. Adabiy til tarixini o'rganuvchilar bu formani faqat o'zbek adabiy tilining dialektal asoslaridan biri sifatidagina hisobga olishlari mumkin. Shuningdek o'zbek adabiy tilida “ж” lovchi sheva unsurlarining paydo bo'lishi

ham adabiy tilning dialektal asoslaridan biri qipchoq shevalari ekanligidan darak beradi. Adabiy til tarixchisi shu fakti faqat ta'kidlash bilan chegaralanadi, “Ж” lashish hodisasining kelib chiqishi bilan bog'liq sof lingvistik muammo uni qiziqitirmaydi. Bu muammo bilan tarixiy grammatika shug'ullanadi.

Tarixiy grammatika adabiy yodgorliklarning, xalq shevalarining ma'lumotlaridan foydalangan holda tovushlar, grammatik shakllar tarixini o'rganadi.

Ulug' Tursunovning til tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarida bayon qilingan fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, bu soha 1) o'sha tovushlar va grammatik formalarning u yoki bu davrda me'yorlashuvi va uslubi vazifalari masalalarini; 2) leksika tarixini; 3) uslubiy vositalar tarixini; 4) yirik, mashhur yozuvchilar va ular asarlari tilining xususiyatlarini; 5) adabiy til turli ko'rinishlari (uslublari)ning ma'lum davrlardagi o'zaro munosabatlari; 6) adabiy til me'yorlari masalasini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Demak, adabiy til tarixi predmeti tarixiy grammatika predmetiga nisbatan keng doiradagi muammolarni o'rganish bilan mashg'ul bo'ladi, lekin bu muammolarni u faqat adabiy til ramkasidagina tadqiq qiladi.

Adabiy til tarixini o'rganganda yana bir muhim masalani – adabiy tillarni o'zaro ta'siri va buning oqibati masalasini ham e'tiborga olish kerak. Biz bu o'rinda eski o'g'uz va uyg'ur adabiy tillarining hamda arab, fors-tojik adabiy tillarining eski o'zbek adabiy tiliga, rus adabiy tilining yangi, hozirgi o'zbek adabiy tiliga ta'sirini nazarda tutyapmiz. Qolaversa, Alisher Navoiy asos solgan o'zbek adabiy tili (“chig'atoy turkisi”) keyinchalik boshqa ba'zi turkiy adabiy tillarning shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan ediki, buni ham eslash foydadan xoli emas.

Ulug' Tursunov qarashlaridagi adabiy til tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan yana ikki masala ustida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Birinchidan, “chig'atoy adabiy tili” atamasi xususida. Bu atama xususida ko'p turkshunos olimlar, jumladan X.Vamberi,

V.V.Radlov, P.M.Melioranskiy, P.E.Korsh kabi olimlar uning doirasini toraytirib, faqat XV-XV11 asrlardagi adabiy tilni tushunadilar. Darhaqiqat, Movraunnahr, Yettisuv, Qoshg‘ar kabi katta hududlarni o‘z ichiga olgan Chig‘atoy ulusida amalda bo‘lgan adabiy tilni “chig‘atoy adabiy tili” deyish rasm bo‘lib qolgan edi. Shu atama bilan temuriylar davrida va undan keyingi bir necha asr davomida turli turkiy xalqlar orasida yagona, ma‘lum darajada sun‘iylik kasb etgan adabiy tilni ham atadilar.

XX asrning 60-yillaridan boshlab chig‘atoy adabiy tili deganda eski o‘zbek adabiy tilini ko‘zda tuta boshladilar, keyinroq esa undan butunlay voz kehdilar.XV asrgacha turli mintaqada va davrlarda amalda bo‘lgan har xil eski turkiy adabiy tillarning umumturkiy xususiyatlarini yangidan shakllangan milliy adabiy tillardan ajratib turuvchi oraliq vosita rolini uynadi.

Ikkinchidan, ba‘zi adabiy tillar taraqqiyotining boshlang‘ich davrini belgalash xususida. Bu muhim va dolzarb masalani hal qilishda mutaxassis olimlar orasida yakdillik sezilmaydi. Ayni holni biz o‘zbek tili tarixini, jumladan o‘zbek adabiy tili tarixini davrlashtirishga oid F.Kamol, T.Salimov, A.M.Shcherbak, O.Usmonov, F.Abdurahmonov, E.Fozilov, U.Tursunov bilan B.O‘rinboev, A.Aliev bilan Q.Sodiqov kabi olimlar tomonidan bayon qilingan fikrlarda ko‘ramiz. Shularning ayrimlarida o‘zbek adabiy tili tarixi bilan o‘zbek tilining tarixiy grammatikasini yetarli darajada farqlamaslik hollari ko‘zga tashlanadi. Hammaga ma‘lumki, biror davrda adabiy tilning bo‘lgan yoki bo‘lmaganligini o‘sha davrda adabiy asarlar yig‘indisi bor yoki yuqligi tasdiqlashi mumkin. Agar ana shunday adabiy asarlar matnlari mavjud bo‘lmasa, adabiy tilning o‘zi ham yo‘q. O‘zbek adabiy tilining namunolari XIV-XV asrlardan boshlab paydo bo‘lganligini hisobga olsak, chig‘atoy adabiy tilini o‘zbek adabiy tilining ilk taraqqiyot bosqichi deb hisoblash mumkin.

Tan olish kerakki, shu paytga qadar o‘zbek adabiy tili tarixini bir butun holda, sistemali tarzda tahlil qilishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar

juda kamchilikni tashkil qiladi. Bu esa mazkur yoʻnalishda hali koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilishi lozimligini koʻrsatadi.

OʻZBEK ADABIY TILI TARIXINI DAVRLASHTIRISH MASALASI

Oʻzbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalasida koʻpgina turkshunos olimlar qatori U.T.Tursunovning ham xizmatlari bor. Bu masalada U.T.Tursunov va B.Oʻrinboevlar turkiy tillar va, xususan, oʻzbek tili tarixini davrlashtirishdagi tasniflardan farqlovchi oʻzbek adabiy tili tarixini davrlashtirishining oʻziga xos namunasini berganlar. Shu tasnifning birinchi banda - Ilk davr oʻzbek xalq tili deb nomlangan boʻlib, X asrdan **XIV** asrning yarmigacha boʻlgan davrni qamrab oladi. Xususan, **XI-XIV** asrlar davomida yaratilgan yozma yodgorliklarniyag matnlari tahlili asosida eski oʻzbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish anʼanalarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Tasnifda **XI-XIV** asrlarda yaratilgan asarlarga xos boʻlgan fonetik jihatdan farqlanish adabiy tilni yuzaga keltiruvchi asosiy faktorlar ham qamrab olingan. Ana shunday fonetik xususiyatlardan ayrimlari haqida toʻxtalamiz.

Lab-lab undosh tovushining soʻz boshida qoʻllanilishidagi jarangsiz va jarangli fonetik belgisi juda koʻpchilik turkiy tillarda bir va besh sonlarining nomlanishida soʻz boshidagi undosh tovush jarangli lab-lab tovushi - **b** shaklida uchraydi. Bu xil qiyosiy fonologiyaning umumiy qoidasiga toʻgʻri keladi. Jarangsiz lab-lab tovushi —**p** faqat chuvash tili uchun xarakterlidir. Bu holat -**b~m**, **b~v** sonlarga tegishli emas. Koʻrsatilgan belgi tekshirilayotgan obidalar uchun neytral xolatga ega. Shuningdek, bu hol arab grafikasining yozuv sistemasi bilan ham izohlanadi.

Chunki, bir soʻzining boshidagi **b** jarangli undosh tovushi tahlil qilinayotgan davr yodgorliklarida arab yozuvida yozilgan. Shimoliy-sharq va bulgʻor guruhlariga tegishli boʻlgan tillarda bu soʻz jarangsiz

p tovushi orqali beriladi. Arab yozuvida **g=p** tovushini ifodalovchi maxsus xarf bo'lmaganligi sababli jarangli, portlovchi va lab-lab tovushi **b** hamda jarangsiz portlovchi lab-lab tovush **p** dastlab arab alifbosida yozilgan. Turkiy nutqda bu tovushlarning soʻz boshida qoʻllanishidagi xususiyatlar farq qilinmagan. **XI** asr yodgorligi “Devonu lugʻotit turk” asarida bu ikkala tovush orqali berilgan (MK, I, 360, 386, 390 va boshqalar). **XIV** asr Xorazm yozma yodgorliklaridan boshlab yozuvda fors tilidan utgan soʻzlarda **p** harfi qoʻllanila boshlandi. Shunday boʻlsa-da, turkiy yodgorliklar tilidagi turkiy qatlamga oid soʻzlarda uchrovchi **p** tovushi faqat oʻxshashlik asosidagina ajratildi. Eski oʻzbek adabiy tiliga oid keyingi davr (**XV-XVI**) yozma yodgorliklarida ham **p** va **b** tovushini farqlamaslik saqlanib qoldi. Shunday qilib, soʻz boshida qoʻllanuvchi **a/6** fonetik belgining xususiyatlarini tekshirilayotgan davr tili uchun betaraf boʻlib qolishini asosan, arab alifbosining grafik tizimi bilan bogʻliq hlda izohlash mumkin. Bugungi oʻzbek tilshunosligida til tarixini davrlashtirishda maʼlum farqlar mavjud boʻlsa-da, ularda Ulugʻ Tursunov qarashlarining taʼsiri sezilib turadi. Toshkentda 2005 yilda filologiya fakulteti talabalariga moʻljallab nashr qilingan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligida oʻzbek tili tarixi quyidagicha davrlashtirilgan:

Oʻzbek adabiy tilining tarixi beshta katta davrni oʻz ichiga oladi:

- I. Eng qadimgi turkiy til (V asrgacha).
- II. Qadimgi turkiy adabiy til (V—X asrlar).
- III. Eski turkey adabiy til (XI-XIII asrlar).
- IV. Eski oʻzbek adabiy tili (XIV—XIX asrning 1 — yarmi).
- V. Yangi oʻzbek adabiy tili (XIX asrning 2 —yarmi).
- VI. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (XX —asrdan boshlab hozirgacha).³⁹

³⁹ Sayfullayeva R., Qurbonova M., Mengliyev B., Boqiyeva G. Hozirgi o'zbek tili. (Kirish, Fonetika-fonologiya, Grafika, Talaffuz va imlo, Leksikologiya, Frazologiya, Leksikografiya). Darslik. Toshkent, 2005. —b.7.

O‘ZBEK ADABIY TILINING TARAQQIYOTIDA ALISHER NAVOIYNING ROLI

Alisher Navoiy eski o‘zbek adabiy tilining katta imkoniyatlarga ega ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslabgina qolmadi, balki shu bilan birga uni amaliy jihatdan amalda qo‘llab, kamolotga yetishtirdi, katta poeziyaga, katta adabiyotga tadbqiq qilganini prof. U.Tursunov o‘z asarlarida har tomonlama yoritishga intilgan. Olim ta’kidlaganidek, Alisher Navoiy o‘z ijodining oxirigacha “o‘z tillari bilan ko‘proq aytsalar” degan shiorga amal qildi. O‘zbek tilini adabiy shaklga kiritishga juda ko‘p kuch sarfladi.

Alisher Navoiyning o‘zbek adabiy tili taraqqiyotidagi xizmati va rolini, deb ko‘rsatadi,- U.Tursunov- fransuz ma’rifatparvari Dyu-Belli, ulug‘ rus olimi M.V.Lomonosov qarashlari bilan taqqoslash mumkin. Chunki Navoiyda ham, Dyu-Bellida ham, Lomonosovda ham g‘oya birligi mavjud. “Navoiy milliy tilga murojaat qilib, uni rad qilib bo‘lmaydigan darajada asoslab, vatanparvarlikni boshlab berdi” (M.Belin).

Ma’lumki, Navoiy juda murakkab davrda yashab ijod qilgan.O‘zbek tilida badiiy jihatdan yuksak asarlar yaratish imkoniyatlarini inkor qiluvchilarning bu tilning dag‘al, bu tilda eng nozik fikr va tuyg‘ularni ifoda qilib bo‘lmasligi to‘g‘risidagi fikrlari o‘sha davrlarda yetakchilik qilar edi. Hatto, jamiyatning arestokrat tabaqasi o‘zbek tilida yozilgan asarlarini nazarga ilmas edi. Mana shunday sharoitda maydonga chiqqan Alisher Navoiy o‘z xalqining tilini muhofaza-mudofaa etib, uni g‘ayri ilmiy halokatdan qutqarib qolishga va uni hamoyasiga olib, rivojlantirishga dadillik bilan kirishdi. U tarixda birinchi bo‘lib o‘zbek adabiy tili uchun g‘amxo‘rlik qilish va uni o‘sha davrdagi nufuzli tillar, ya’ni arab va fors tillari qatorida rivojlantirish uchun ko‘rash bayrog‘ini ko‘tarib chiqdi. U aytgan fikrlarini, ko‘rashlarini adolatli ekanligini isbot qilish uchun o‘z xalqi tilining, ya’ni ona tilining boyligi, nihoyatda keng qamrovli va ajoyib xususiyatlarga ega ekanligini ham amaliy, ham

nazariy jihatdan namoyish qilishdek mashaqqatli ishga shijoat bilan bel bog‘lagan edi.

Alisher Navoiyning o‘zbek adabiy tilini rivojlantirishdagi roli nihoyatda buyukdir. U o‘zining adabiy asarlarida ayniqsa, tilshunoslikka oid bo‘lgan “Muhokamatul - lug‘atayn “ asarida faqatgina ikki til lug‘atini chog‘ishtirib qolmay, balki, ona adabiyotining taqdiri masalalarini asosan hal qildi. Alisher Navoiy va uning o‘zbek tili imkoniyatlarini ko‘rsatishga bag‘ishlangan asarlari Ulug‘ Tursunov va B.O‘rinboevlar tomonidan yaratilgan “O‘zbek adabiy tili tarixi” kitobida ancha keng yoritib berilgan. Ulug‘ Tursunov Alisher Navoiyning o‘zbek tili rivojida muhim o‘rin egallashini shoir asarlarini tahlil etish vositasida ko‘rsatib berishga muvaffaq bo‘lgan.

Asardan anglashilishicha, Navoiyning “Majolis-un nafois” asarida shoirning o‘ziga qadar bo‘lgan adabiyot va uning namoyandalari, hamda o‘z zamonasidagi turkigo‘y shoirlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Ulug‘ Tursunov Alisher Navoiyning tillarga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatishda to‘g‘ridan to‘g‘ri shoirning ijodiga murojaat qiladi va shoirning “U tilda (ya’ni forsiy tilda) o‘zlaricha so‘zlay olurlar, balki ba’zi birlari balog‘at va fasohat bilan gapirurlar” degan fikrini keltiradi. U fikrini davom ettirib yana quyidagilarni asos sifatida keltiradi: “Ammo turkning ulug‘idin kichigiga deguncha, navkaridin begiga deguncha sort (fors-tojik) tilidan bahramanddurlar. Andoq kim o‘z xurdi ahliga ayta olurlar” (Muhokamatul-lug‘atayn 6-bet.). Tilni sof saqlash, me’yoriy qoidalarga amal qilish aslida Navoiy davrida ham kun tartibidagi masalalar jumlasiga kiradi. U bu haqda Navoiyga yana murojaat qiladi: “agar ularning yuz yoki mingdan bittasi turk tilini o‘rgangan bo‘lishsa-da va shu tilda so‘zlasha olishsada tinglovchi darxol uning forsiy ekanligini payqab oladi”.

Turkiy tilning mavqei sun’iy ravishda pasaytirilishi Ulug‘ Tursunov tomonidan quyidagilar bilan izohlanadi. Birinchidan, asosiy sabab forsiy til turkiy xalqlar yashaydigan hududlarda imtiyozli til sifatida o‘z davrlarda ancha rivojlanganligi va xalq hayotining barcha

jabhalarida keng qo‘llanishda bo‘lishi, va buning ilm-fan tilida ham an’anaga aylanib qolganligidir. Natijada vaqt o‘tishi bilan ijodda va rasmiy muomalalarda forsiy tildan foydalanish odatga aylanib qolgan edi. Alisher Navoiy o‘zbek tiliga e’tiborni kuchaytirishga bel bog‘lab, boshqalarni ham bu mashaqqatli, ammo sharaflı va ezgu ishga ergashtirdi. Navoiy o‘z qarashlarida o‘zbek adabiyotini yanada boyitdi va o‘zbek adabiy tilining fikr ifodalash imkoniyatlari cheksiz ekanligini misollar asosida isbotlab berdi. Ulug‘ Tursunov Navoiyning quyidagi fikrlarini dalil sifatida keltiradi: “O‘zbek tilining boyligi shuncha dalillar bilan isbot qilindi. Shunday qilish ham kerak edi. Bu xalq orasida paydo bo‘lgan yaxshi qobiliyat egalari o‘z ona tillari turgach, qobiliyatlarini forsiy til bilan ko‘rsatmaslar va ul til bilan ishga buyurmasalar edi. Va agar har ikki tilda she‘r aytishga qobiliyatlari bo‘lsa, o‘z tillarida ko‘prok aytishar edi. Agar ishni oshirib yuborishga istasalar har ikkala tilda teng aytsalar edi”.

Ulug‘ Tursunov kuzatishlarida Alisher Navoiyning o‘zbek tili rivoji uchun qilgan xizmatlari xolisona, asosli va dalillar bilan ochib berilgan. Qolaversa, olimning bu masaladagi qarashlari keyingi davr tilshunoslari uchun yo‘riqnoma bo‘ldi desak, xato bo‘lmaydi.

Biz Alisher Navoiyning o‘zbek adabiy tiliga qo‘shgan hissasini professor U.Tursunov va u kishining shogirdi U.Sanaqulov talqinida quyidagicha ko‘ramiz:

Ulug‘ Tursunov talqinida	Usmon Sanaqulov talqinida
U.Tursunovning “O‘zbek adabiy tilining taraqqiyotida Alisher Navoiyning roli”, “Alisher Navoiy asarlari tilida leksik va grammatik normalarning belgilanishi”, “Ona tili sofliги uchun tolmas kurashchi” nomli ilmiy maqolalari va “Navoiy va o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek adabiy tili o‘z taraqqiyoti	U.Sanaqulovning “Alisher Navoiyning so‘zdan foydalanish mahorati va qofiya” (1988), “O‘zbek xalqining hamda tilining tarkib topishi va nomlanishi” (1990), “Alisher Navoiy – tilshunos olim” (1991), “Alisher Navoiyning so‘zdan foydalanish mahorati” (2004) kabi ilmiy risolalar, “O‘zbek

yo'lida", "O'zbek adabiy tili tarixi kursining predmeti va vazifalari", "Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili", "XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi adabiy tilimizning tarixidan" kabi asarlari e'lon qilingan.	tilshunosligining asoschisi" (1991), "Alisher Navoiy va o'zbek tilshunosligi masalalari" (1992), "Yaikovoy material proizvedeniy Alishera Navoi klyuch k poznaniyu starouzbekskogo yazika" (1993), «O'zbek adabiy tilining shakllanishida Alisher Navoiyning hissasi» (2000), "Alisher Navoiy va adabiy til uslublari" (2001), "Navoiy merosini o'rganish" (2003), "Muhokamat ul-lug'atayn"dagi ba'zi lingvistik talqinlar" (2004), "Navoiy - uslubshunos" (2006) kabi qator ilmiy maqolalari ye'lon qilindi.
Ushbu ishlarda olim Navoiy asarlari tilida leksik va grammatik normalarning belgilanishi, Navoiyda arxaizm va undan foydalanish prinsiplari, turkiy tillar boyligidan foydalanish usullari va ularning stilistik xususiyatlari, Alisher Navoiyning tillarga munosabati, Navoiy poetik, prozaik asarlari va maktublarining tili va uslubi, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining o'zbek tili tarixida tutgan o'rni to'g'risida ma'lumot beradi.	Ushbu ishlarda olim Navoiy asarlari tilida leksik va grammatik normalarning belgilanishi, Alisher Navoiyning tillarga munosabati, Navoiy poetik, prozaik asarlari va maktublarining tili va uslubi, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining o'zbek tili tarixida tutgan o'rni to'g'risida ma'lumot beradi.

“Alisher Navoiy o‘z xalqining adabiyoti va adabiy tilini himoya qilish, rivojlantirishdek zo‘r davlar ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim masalani ko‘tarib chiqdi va o‘z umrining oxirigacha o‘zbek adabiy tili va adabiyotini yuksak darajaga ko‘tarish uchun kurashdi. Alisher Navoiyning ilm va madaniyat, jumladan, o‘zbek adabiy tili rivoji sohasidagi buyuk xizmatlarini fransiyalik Dyu Belle, italiyalik Dante, germaniyalik Lyuter kabi shoir va olimlarning o‘z ona tililarini yaratishdagi xizmatlari bilan chog‘ishtirishimiz mumkin. Chunki biz nomlarini qayd etgan buyuk shoir va olimlar o‘z ona tillarining shavkati uchun kurashgan vatanparvarlar edilar” [Tursunov U., O‘rinboev B. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – B.116].	“Navoiyning buyuk xizmati shundaki, uning asarlarida o‘zbek adabiy tilining umumxalq me‘yorlari ishlab chiqildi va qat’iylashdi. Bu me‘yorlar uning zamondoshlari va keyingi avlodlar tomonidan to‘la ma’qullandi, yanada rivojlantirildi. Adabiy tilning umumxalq me‘yorlarini yaratish faqat til qurilishinigina emas, balki uning turli uslub ko‘rinishlarini ham qamrab oldi. Garchi Navoiy yagona umumiy me‘yorlarni badiiy adabiyot tili asosida ishlab chiqqan bo‘lsa ham, lekin ular faqat badiiy adabiyot tilininggina emas, balki umuman o‘zbek adabiy tilining keyingi taraqqiyoti uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qildi” [Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – B. 148].
---	--

Yuqoridagi fikrlar Ulug‘ Tursunov qarashlarining keyingi yillarda yaratilgan tadqiqotlarda yanada davom ettirilganligi, olimlarning yondashuvlarida umuuniylik mavjudligidan dalolat beradi.

O'ZBEK TILI USLUBIYATI MASALALARI

Badiiy asar tili va uslubi, shuningdek, til va nutq uslublari masalalari o'zbek tilshunosligi taraqqiyotining barcha davrlarida dolzarb sanalib kelingan. Samarqand tilshunoslik maktabining asoschisi professor Ulug' Tursunov 50-yillardayoq, aniqrog'i, 1957 yilda "K voprosu razvitiya uzbekskogo literaturnogo yazika v sovetkiy period" nomli maqolasida badiiy adabiyotning adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishiga asta-sekin, davrlar o'tishi bilan uning o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aytgan edi. Asardagi fikrlar garchi umumiylikka ega bo'lsa-da, bu borada bajarilishi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadqiqot ishlari aniq va ravshan ko'rsatilgan edi. "Stilistikaning vazifasi u yoki bu stilda yoki nutq formasida, ya'ni og'zaki va yozma nutqda qanday til hodisalari ko'proq qo'llanilishini aniqlashdan iboratdir"³, deyiladi. "Badiiy adabiyot tili adabiy tilning o'ziga xos ko'rinishiga va xususiyatlariga ega bo'lgan shakllardan biridir. Badiiy adabiyot tili ham til taraqqiyotining umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi. Boshqacha qilib aytganda, adabiy til kabi omma uchun aloqa vositasi bo'lishdek xususiyatga egadir. Badiiy adabiyot tilining o'ziga xosligi va murakkab yo'nalishi shundaki, u tilning adabiy bo'lmagan xilma-xil ko'rinishlarini, qatlamlarini ham keng ravishda o'ziga singdirib olib, umumxalqqa namoyish etadi. Shuningdek, har bir badiiy adabiyotda ma'lum bir adabiy tilning turli-tuman uslublari keng qo'llanishi mumkin⁴⁰".

Ma'lumki, badiiy adabiyot turli janrlarda mavjud bo'ladi. Shuningdek, yozuvchilar ham turli janrlarda ijod qiladilar. Yozuvchi asarlari tili va uslubini belgilashda yoki o'rganishda asar janri muhim o'rin egallaydi. Masalan, she'riy asar bilan nasriy asar, dramatik asar bilan she'riy yoki nasriy asar bir-biridan syujeti bilan ham, kompozitsiyasi bilan ham, tili bilan ham, uslubi bilan ham farq qiladi.

⁴⁰ Турсунов У., Носиров У. Об определении понятия стиля писателя (на материале узбекского языка) // Развитие стилистических систем литературных языков народов СССР. – Ашхабад, 1968. – С. 267-274.

Shuning uchun badiiy asar tili va uslubi yoki yozuvchi tili va uslubi haqida fikr yuritganda albatta shu holatlarni inobatga olish lozim.

Ma'lumki, til taraqqiyoti xalq ongi taraqqiyoti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, xalq ijtimoiy hayotida bo'layotgan har bir o'zgarish tilning lug'at tarkibida aks etadi, grammatik qurilishi takomillashadi, til birliklarining vazifaviy- uslubiy imkoniyatlari kengayadi.

Olim "O'zbek tilinig hozirgi aktual masalalari to'g'risida" (1934) nomli ilmiy maqolalaridan birida grammatika bilan bir qatorda badiiy nutq tili muammolarini tadqiq etish o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari qatoriga kirishini ta'kidlagan edi.

Prof. U.Tursunov shogirdi B.O'rinboev bilan hamkorlikda yaratgan "O'zbek adabiy tili tarixi" qo'llanmasida tilshunoslikning eng dolzarb muammolari qatori adabiy tilni tarixiy - stilistik tomondan o'rganish masalasiga alohida ahamiyat beradi. Asarda til va xalq taraqqiyoti bog'liqligidan kelib chiqib, adabiy tilni tadqiq yetish ikki sathda - tarixiy va stilistik aspektda olib borilishi hamda tarixiy-stilistik aspektda faqat nutq vositalari tarkibi emas, balki ularning qo'llanish doirasi, ya'ni u yoki bu nutq ko'rinishida turli ma'no nozikliklarini ifodalash imkoniyatlari o'rganilishi lozimligi qayd yetiladi. Olimning xizmatlaridan yana biri shundaki, u o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib tilni uslublarga bo'lib o'rganish masalasini o'rtaga tashladi va amaldagi uslublarniig o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berdi. Olim har bir uslubning til uslublari tizimida tutgan o'rni, boshqa uslublarga o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun dastlab uning inson faoliyatining qaysi sohasida xizmat qilishi, qo'llanish ko'lamini belgilash lozimligini qayd qilar ekan, hozirgi adabiy tildagi uslublarni quyidagicha tasniflaydi:

1. **Adabiy-badiiy stil.** Buning o'zi poetik stil va prozaik stil, deb ikkiga bo'linadi.

2. **Ijtimoiy- publisistik stil.** Bunga gazeta- jurnal, adabiy-tanqidiy asarlar, pamfletlar, maqolalar va ocherklar stili kiradi.

3. **Ilmiy bayon stili.** Meditsinaga oid asarlar stili matematik asarlar stilidagi, ular o‘z navbatida ilmiy-falsafiy asarlar stilidan tubdan farq qiladi. Yuridik asarlar stili nutqni bayon etish jihatidan o‘ziga xos xususiyatga egadir. Ilmiy- ommabop asarlar, maqolalar, broshyuralarning stili ham o‘ziga xos xususiyatga ega.

4. **Professional-texnik stil.** Bu ishlab chiqarish va texnika adabiyotlari stilidir. Bu stil texnika sohasida, harbiy sohada va boshqa turli xil kasb-hunarlar sohasida ish ko‘ruvchilar uchun xizmat qiladi.

5. **Qonunlashtiruvchi xujjatlar, buyruqlar, topshiriqlar uslubidan iborat rasmiy hujjatlar stili.**

6. **Har xil yozishmalar va xatlarga xos bo‘lgan maktublar stili.**

Garchi yuqoridagi tasnifda qayd etib o‘tilgan professional- texnik stil, maktubiy stil kabilar bugungi vazifaviy uslublar tizimida mustaqil uslub sifatida qaralmasa-da, olimning uslublar tasnifi masalasida bildirgan fikrlari o‘zbek tilshunosligida navbatdagi tadqiqotlar uchun keng yo‘l ochib berdi. Natijada keyingi yillarda har bir vazifaviy uslub, xususan, so‘zlashuv uslubi B.O‘rinboev, D.O‘rinboeva, rasmiy uslub D.Boboxonova, publisistik uslub T.Qurbonov, ilmiy uslub M.Mukaramov, badiiy uslub S.Karimov, B.Yo‘ldoshevlar tomonidan alohida monografik tarzda tadqiq etilgan. Tilshunos olim S.Karimov bu haqda shunday fikrlaydi: “O‘zbek tilidagi FUlarga doir qarashlar umumlashtiriladigan bo‘lsa, uslublar dastlab og‘zaki va yozma shakllarga, ularni yana o‘z navbatida ilmiy, rasmiy, publisistik, badiiy, diniy va so‘zlashuv kabi ko‘rinishlarga ajratish haqida qarashlar mavjudligi ma’lum bo‘ladi. Hozircha ulardan beshtasi – ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy, so‘zlashuv uslublari va ularning me’yoriy xususiyatlari, til materiali sifatidagi hamda nutq jarayonidagi o‘ziga xosliklari o‘zbek tilshunosligida monografik yo‘nalishda o‘rganilgan”.⁴¹

⁴¹ Уринбаев Б. Вопросы синтаксис узбекской разговорной речи: Автореф. дис. ...д-ра филол.наук. – Ташкент, 1974; Мукаррамов М. Научный стиль современного узбекского литературного языка в семантика-функциональном аспекте: Автореф. дис. ...д-ра филол.наук. – Ташкент, 1985; Бабаханова Д. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ...канд филол.наук. – Ташкент, 1987; Курбанов Т.И. Публицистический стиль современного узбекского

Badiiy adabiyot dastavval adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishiga hamda asta-sekin, davrlar o'tishi bilan uning o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Badiiy adabiyot tilida aks ettirilayotgan davr uchun me'yor hisoblangan so'z shakllari va grammatik vositalar faol ishlatiladi. Ularning qaysi birlari kam qo'llanilsa ham, badiiy adabiyot matnida ishlatilish yo'li bilan umumxalq iste'moliga singdirib boriladi. Natijada shakllanayotgan adabiy til boyib boradi. Xuddi ana shu jihatdan badiiy adabiyot tili adabiy til rivoji uchun asosiy manbalardan biri sanaladi.

O'z navbatida, adabiy til badiiy adabiyot tili uchun umumbirlikka ega bo'lgan umumtil yoki umumxalq tiliga mos xususiyatlar asosida bo'lishini talab yetiladi. Chunki badiiy adabiyot: tili ham ko'pchilikka, ya'ni umumommaga tushunarli bo'lsagina, bunday asar keng tarqaladi va mashhur bo'ladi. Shuning uchun har qanday adabiy til ma'lum xalqqa xos bo'lgan adabiy tilning leksik boyligi, fonetik va grammatik qurilishi asosida yaratiladi. Demak, badiiy adabiyot tili adabiy til materiallaridan, qonun-qoidalaridan, uslubiy me'yorlaridan, rang-barang bo'yoqlaridan unumli oziqlanadi.

Badiiy adabiyot tili adabiy tilning o'ziga xos ko'rinishiga va xususiyatlariga ega bo'lgan shakllaridan biridir. Badiiy adabiyot tili ham til taraqqiyotining umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi. Boshqacha qilib aytganda, adabiy til kabi omma uchun aloqa vositasi bo'lishdek xususiyatga egadir. Badiiy adabiyot tilining o'ziga xosligi va murakkab yo'nalishi shundaki, u tilning adabiy bo'lmagan xilma-xil ko'rinishlarini, qatlamlarini ham keng ravishda o'ziga singdirib olib, umumxalqqa namoyish etadi. Shuningdek, har bir badiiy adabiyotda ma'lum bir adabiy tilning turli-tuman uslublari keng qo'llanishi mumkin.

Ma'lumki, umumxalq tilining lug'aviy-iboraviy, uslubiy va grammatik xususiyatlarini hisobga olmay turib, badiiy adabiyot tilining o'ziga xosligini aniqlab bo'lmaydi. Shu bilan birga, asar tili,

uning mazmuni, obrazlar tuzish, janri va uslubiy jihatlariga asoslangan bo‘ladi va milliyliги anglashilib turadi.

Badiiy adabiyot tilining eng muhim xususiyati kishi xarakterining juda ko‘p qirralarini to‘liq aks ettirishi, jonli individual nutqining rang-barangligi, buyokdorligi va nozikliklarini mukammal ifodalashidir. Yozuvchi jonli individual nutqning barcha boyliklariga katta e‘tibor beradi, nutqiy amaliyot malakalarini umumlashtirish asosida uning eng muhim, eng yaxshi, xarakterli milliy xususiyatlarini tanlab oladi. Ulardan turli voqealarni aks ettirishda, obrazlarni yaratishda keng foydalanadi.

Badiiylik, his-hayajonlilik, obrazlilik, ifodalilik, ta’sirchanlik kabilar bevosita badiiy adabiyotga xos xususiyatlardir.

Adabiy asarlarning badiiyligi, birinchi navbatda, qayd etilgan xususiyatlarga xos bo‘lgan uning tilida namoyon bo‘ladi. Badiiy asardan olingan zavq kishida yuzaga keladigan his-hayajon, har xil tuyg‘ular ham uning tili bilan bog‘langan. Badiiy asar tilining hayajonlilikgi esa uning ifodaliligini, ta’sirchanligini va obrazlilikgi bilan bog‘langan. Shunga ko‘ra, badiiy asarlar til jihatdan tadqiq etilganda, uning ikki tomoniga, ya’ni birinchidan, yozuvchining tiliga, ikkinchidan, qo‘llagan til materialining o‘ziga xos uslubiga ko‘proq e‘tibor beriladi.

Yozuvchi tili adabiy tildan va so‘zlashuv tilidan tanlab olingan til vositalarining yig‘indisidir. U tasodifiy va begona til unsurlaridan xoli bo‘ladi. Unda xalq tilining juda ko‘p qirralari ifodalanadi. Kuchli badiiylikka erishiladi.

Adabiy til va uning adabiy bo‘lmagan ko‘rinishlarining o‘zaro bir-biriga ta’siri badiiy adabiyot tilida ochiq ko‘rinadi. Bularning hammasi yozuvchining o‘z davri tiliga, uning rivojlanishiga katta ta’sir qilishini ko‘rsatadi, xalq tilining boyligini, uning rang-barangligini, qudratini namoyish qiladi, uni qadrlashga, yanada e‘zozlashga da’vat etadi.

Adabiy til ma’lum ijtimoiy vazifalarni bajaradi va uning bu vazifalari davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib turadi. Adabiy til tarixining

bosh masalalaridan biri tilning ijtimoiy vazifalarini aniqlashdir. Bu jarayon adabiy til tarixining xalq madaniyati tarixi, ijtimoiy tafakkuri, adabiyot va adabiy yo‘nalishlar hamda oqimlar tarixi bilan bog‘langanligi masalalarini qamrab oladi.

Shuningdek, bu masala adabiy til tarixining ma‘lum davrlaridagi ijtimoiy-g‘oyaviy kurashlari bilan ham bog‘liqligini taqozo yetadi. Jumladan, o‘zbek adabiy tilining XIV-XV asrlardagi taraqqiyoti masalalari, xususan, Alisher Navoiyning til masalalariga doir qarashlari va unga xos manbalarini, adabiy tilning Alisher Navoiygacha bo‘lgan taraqqiyoti va bu sohada ulug‘ shoir ko‘rashlari natijasida erishgan ulkan muvaffaqiyatlarini - bularning hammasini shu davrlarda yashagan yirik o‘zbek shoirlari va olimlarining ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy ko‘rashlari, nuqtai-nazarlarini hisobga olmay turib to‘g‘ri hal qilib bo‘lmaydi. Bular orasida, ayniqsa, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy hamda Bobur va Muhammad Solihlarning ijodiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ijodida o‘z davrining badiiy adabiyot va adabiy til namunasi to‘liq aks etgan.

Prof. U.Tursunovning badiiy asar tiliga oid ishlarida tilning ifodatasvir vositalari, ularning badiiy matndagi uslubiy xususiyatlari muammosiga jiddiy ye’tibor bergan. Bu jihatdan olimning shogirdi S.A’zamov bilan hamkorlikda yozgan “Epitet to‘g‘risidagi ba’zi bir mulohazalar” nomli ilmiy maqolasi xarakterlidir⁴².

Maqolada I.Astaxov, A.N.Veselovskiy, A.G.Abramovich, L.N.Shepilova, L.N.Timofeev, I.Sulton, N.Mallaev, V.Zohidov singari olimlarning sifatlash (epitet) haqidagi fikrlariga munosabat bildiriladi hamda “epitet kishi va narsalarning, hayvonlarning ma‘lum sifatini ko‘rsatish bilangina chegaralanib qolmasdan, shu orqali butun predmetni har tomonlama aniqlab, kuchaytirib, xarakterlab ham keladi. Epitet u yoki bu yozuvchi tomonidan qo‘llanilar ekan, predmetga badiiy bo‘yoq beradi, predmetning belgisini ko‘rsatibgina qolmasdan, yozuvchining shunga bo‘lgan munosabatini ham

⁴² Турсунов У., Аъзамов С. Эпитет тўғрисида баъзи бир мулоҳазалар // Ўзбек филологиясининг баъзи масалалари (илмий мақолалар тўплами), - Самарқанд, 1970.- Б. 152-157.

belgilaydi⁴³”, - deb alohida ta’kidlanadi. Maqolada epitet fikrning obrazli o‘ziga xosligini, ya’ni ma’no ifodalanishini, muallifning individual uslubi va poetik mahoratini ham belgilab beripsh “Ravshan” dostoni, Alisher Navoiy, Ogahiy asarlari, shuningdek, Uyg‘unning “Oltin soz”, “Bahor” she’rlaridan olingan xarakterli misollar yordamida tahlil etilgan.

Prof. U.Tursunov o‘z ilmiy faoliyati davomida faqat o‘zbek mumtoz adabiyoti vakillarining emas, balki Hamza, Oybek, Hamid Olimjon, Uyg‘un, Sharof Rashidov, Asqad Muxtor singari XX asr o‘zbek adabiyotining ulkan siymolari asarlarining tili va uslubiga doir nozik, teran kuzatishlar olib borgan edi. Masalan, olimning o‘z shogirdi X.Doniyorov bilan hamkorlikda yaratgan bir maqolasi shoir Hamid Olimjon poeziyasi tilini o‘rganishga bag‘ishlangandi. Mazkur maqola shoir yoki yozuvchining individual uslubi (stili) haqidagi shunday fikr-mulohazalar bilan boshlanadi: “Ma’lumki, har bir yozuvchi va shoirning, xususan, o‘z ovozi va o‘z o‘rniga ega bo‘lgan san’atkorning o‘ziga xos stili bo‘ladi. Bu stil uning har xil priyomlarni, ayniqsa, til materiallarini qanday ishlatishda, ularni qanday tanlay bilishida va ular orqali fikrni, g‘oyani o‘quvchilar ommasiga qay darajada aniq va ravshan yetkaza bilishida ko‘rinadi⁴⁴”. Maqola mualliflari Hamid Olimjonning takror priyomidan qanday foydalanishi va qofiyalashtirish mahorati haqida asosli fikr-mulohazalarini bildirgan edilar.

Shogirdi U.Nosirov bilan hamkorlikda tayyorlangan ma’ruzada olim “yozuvchi uslubi” tushunchasi, uning mohiyati, uni o‘rganishga o‘zbek filologiyasida turli xil yondoshuvlar haqida to‘xtaladi, yozuvchi uslubi deyilganda faqat uning asarlari tili emas, balki voqelikka munosabati, kompozitsiyasi, bayon qilish usullari kabi bir qancha elementlar ham ana shu tushuncha doirasiga kirishini ta’kidlash bilan birga, K.Fedinning mashhur fikri “Til yozuvchi uslubi uchun shaxmat taxtasidagi shoh kabidir” degan fikrini ham keltiradi,

⁴³ Ўша ерда, Б. 156-157.

⁴⁴ Турсунов У., Дониёров Х. Шоирнинг поэтик тили ҳақида // Ленин йўли, 1959 йил 25 декабрь.

olimlar, uslubshunoslar diqqatini uslub muammosiga lingvostilistik va umumfilologik nuqtayi nazardan yondashishga qaratadi.

U.Nosirov bilan e'lon qilingan yana bir ishi "Qudratli to'liqin"da personajlar nutqi" deb nomlangan bo'lib, unda olim personajlar nutqini individuallashtirish va tipiklashtirish badiiylik uchun naqadar muhim ahamiyat kasb etishini konkret dalillar asosida yoritishga muvaffaq bo'lgan. Maqolada to'g'ri ta'kidlanganidek, "badiiy asardagi har bir obraz o'z tushunchasi, dunyoqarashi, xarakteri, o'y-kechinmalariga muvofiq tilda gapirtirilmasa, u soxta chiqadi". Ana shu aqidadan kelib chiqib, ishda yozuvchi Sharof Rashidovning "Qudratli to'liqin" romanida Po'lat, Akramxon To'raxonov singari obrazlar nutqini individuallashtirishdagi mahorati chuqur tahlil qilingan⁴⁵.

U adabiy til tarixini o'rganar ekan, har bir davrda adabiy til ravnaqi eng avvalo, badiiy adabiyot tilining taraqqiyot darajasiga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlagan. Masalan, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tili tarixi tahlil qilgan olim "1905-1917 yillardagi o'zbek adabiy tili xalqchil emas, balki "aralash" til edi. Adabiyotda poeziya proza ustidan hukmronlik qilar edi. She'rlarning formasi eskicha, tili ham arxaiklashgan edi. Prozaik, dramatik hamda gazeta tili adabiy tilga ta'sir qildi. Turli xil ta'sirlar adabiy tilda o'tkinchi forma va aralash g'oyalarni tug'dirdi. Bu ahvol o'zbek adabiy tilining holatiga ta'sir qildi", - deb ta'kidlaydi⁴⁶.

Prof.U.Tursunov Sh.Shoabdurahmonovning "O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari" nomli monografiyasiga taqriz yozganda, bu asar muallifining "omonimlarning ko'pligi tilning so'z jihatdan boyligini ko'rsatmaydi", "...bu xususiyatdan mumkin qadar qutulish kerak⁴⁷" - degan fikriga e'tiroz bildirib, quyidagilarni yozgan edi:

⁴⁵ Турсунов У., Носиров У. «Қудратли тўлқин»да персонажлар нутқи // Шарқ юлдузи / 1968. №1. -Б. 211-214.

⁴⁶ Турсунов У. XIX аср охири ва XX асрнинг бошларидаги адабий тилимизнинг тарихидан // Алишер Нваоий номидаги Самарқанд давлат университети ўқитувчи ва профессорларнинг 1966 йилги XXIV илмий конференциясининг материаллари (филологик серия). Самарқанд: СамДУ нашри, 1969. -Б.1-2.

⁴⁷ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Тошкент: Ўз ФА нашри, 1962. -Б.332.

“Bizningcha, omonimlarga qarshi “urush” ochmaslik kerak chunki ular leksik-stilistik kategoriya sifatida mumtoz adabiyogimizda so‘z o‘yinlari uchun qanday xizmat qilgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham har xil stilistik ottenkalar, ma’no nozikliklarini beradi va bir xil forma orqali turli xil ma’nolarni berish uchun so‘z san’atida muhim imkoniyatlardan biri sifatida xizmat qilmoqda⁴⁸”.

Uning uslubshunos olim sifatidagi salohiyati N.Rajabov bilan hamkorlikda yaratilgan “O‘zbek tili leksikasining ba’zi masalalari” (1971) nomli o‘quv qo‘llanmasida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu asarda, ayniqsa ko‘p ma’noli so‘zlar, omonimlar va sinonimlarning uslubiy xususiyatlari, ularning badiiy nutq tarkibidagi vazifalari tahliliga alohida diqqat qilingan⁴⁹. Olim stilistik sinonimlar tahliliga ham alohida e’tibor bergan edi. Uning ta’kidlashicha, “stilistik sinonimlar shoir va yozuvchilarning asarlarida nuqiy xarakteristika sifatida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, avtor nutqi bilan personaj nutqini differentsiatsiya qilishga ham yordam beradi. ...so‘z tanlashda sinonimlar faqat ma’no xususiyatlarigina emas, balki qaysi uslubda qo‘llanishi, stilistik buyog‘i ham hisobga olinadi⁵⁰”.

Prof. U.Tursunovning mamlakatimizda yetuk uslubshunos olimlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi xizmatlari ham bebahodir. Olimning shogirdlaridan G‘anijon Abdurahmonov keyinchalik yirik uslubshunos olim, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi darajasiga yerishdi. U.Tursunovning Bozorboy O‘rinboev, Holiq Abdurahmonov, Rahmatulla Qo‘ng‘urov singari shogirdlari ham 70-80-yillarda doktorlik dissertatsiyalarini uslubshunoslik muammolarini tadqiq etishga bag‘ishladilar va bu bilan o‘z ustozlarining shu sohadagi izlanishlarini rivojlantirdilar.

⁴⁸ Турсунов У., Ражабов Н. Ўзбек диалектологиясига қўшилган салмоқли ҳисса // Ўзбек тили грамматик қурилиши ва диалектологияси масалалари (илмий мақолалар тўплами). –Тошкент: Фан. 1966. –Б.57.

⁴⁹ Турсунов У., Ражабов Н. Ўзбек лексикасининг баъзи масалалари . – Самарқанд: СамДУ нашри, 1971. –Б.118-123.

⁵⁰ Турсунов У. Ўзбек адабий тилида стилистик синонимлар // Самарқанд давлат университети асарлари, янги серия, 188-сон. Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: СамДУ нашри. 1971. – Б.129.

O‘ZBEK TILI DIALEKTOLOGIYASI MASALALARINI O‘RGANISHDA SAMARQAND TILSHUNOSLARI

Xalqlarining dialekt va shevalarini o‘rganish ishi hozirgi paytda keng rivojlanmoqda. Turkiy tillarning, jumladan, o‘zbek tilining sheva va dialektlarini o‘rganish sohasida ham birmuncha muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. Tarixiy va territorial jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ayrim shevalar, shevalar gruppasi tavsif qilindi. Ayniqsa tematik xarakterga ega bo‘lgan, birinchi navbatda sheva va dialektlarning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini monografik tipda yoritib bergan bir qancha ilmiy ishlar vujudga keldi. Ammo bu ishlarda sheva va dialektlarning sintaktik xususiyatlari haqida tamomila so‘z yuritilmadi yoki faqat yo‘l-yo‘lakaygina so‘z yuritildi, xolos. Sheva va dialektlarning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlariga doir ilmiy metodikasi dialektologning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari bilan bog‘liqdir. Odatda, monografik tekshirish ishlari ikki xil aspektga ega bo‘lishi mumkin: 1) tavsifiy aspekt, ya’ni dialektografik xarakterga ega bo‘lgan tekshirish va 2) tarixiy aspekt, tarixiy dialektologik aspekt, ya’ni biror sheva yoki dialekt xususiyatlarining tarixini va hozirgi holatini ma’lum izchillik bilan yoritib beradigan tekshirishdir.

Til shevashunosligi, fonetikasi, leksikasi tarixi taraqqiyotini izchil o‘rganib, o‘z aql chig‘irig‘idan o‘tkazib, fikr va mulohazalar bildirib, xulosalar bayon qila olgan zabardast tilshunos olim, professor Ulug‘ Tursunov hayoti, faoliyati, yaratgan asarlari, qo‘llanmalari o‘zbek shevashunosligida alohida o‘ringa egaki, bu haqiqiy, haqqoniy fikrlar xulosalar bayoniga qarshi biron o‘zgacha mulohaza bildiradigan shaxs yoki fikr egasi topilmasa kerak. Albatta, har bir tilning o‘z ichki va tashqi qonuniyatlari bor.

ULUG‘ TURSUNOV TALQINIDA O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI MASALALARI

Prof.U.Tursunov ilmiy merosida o‘zbek dialektologiyasi tarixi, sheva faktini transkripsiyalar usullari, o‘zbek shevalari tasnifi, shevalarni tadqiq etish metodlari, o‘zbek dialektologiyasining asosiy muammolari o‘z ifodasini topgan. Umummilliy tilning shevalari ma’lum til tizimini o‘zida saqlayotgan bo‘lib, real til qurilishini aks ettiradi. Sheva tizimi faqat mahalliy, ma’lum bir joyga xos belgilardangina iborat bo‘lmasdan, balki ularning yig‘indisidan iboratdir. Mahalliy til qatlamiga xos belgilarning bir qismini an’anaviy va arxaik birliklar tashkil qilsa, boshqa bir qismini shevaning keyingi davrdagi taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan. Shuni hisobga olib, prof. U.Tursunov rahbarligida Samarqand viloyati o‘zbek shevalarini o‘rganish dasturi tuzilgan. Uni amalga oshirish yuzasidan olim rahbarligida V.Egamov, N.Rajabov, M.Ahmedov, M.Valiev, Ye.Urozov, Q.Usmokov, H.Hamroev, X.Jo‘raevlar sheva materiallari asosida nomzodlik dissertatsiyalarini hamoya qildilar. Bu sohadagi ishlarning natijasi olimning bir ishida e’lon qilindi. Dialektologik ma’lumotlarning ijtimoiy-tarixiy fanlarga doir ma’lumotlar bilan moslashib, uyg‘unlashib ketishi tekshirilayotgan shevaning o‘zbek tili dialektlari tarkibidagi o‘rnini belgilashga yordam qiladi. Bazi dialektal belgilarning tarqalishini aniqlashda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, o‘zbek tili A.N.Samoylovich tasnifiga ko‘ra, o‘g‘uz, chig‘atoy va qipchoq guruhlariga kiritiladi. “Bu tasodif emas. Chunki o‘zbek tili o‘zining fonetik stukturasi, grammatik qurilishi va lug‘at tarkibiga ko‘ra turli turkiy tillar bilan birlashadigan umumiy xususiyatlarga va shuningdek, u tillardan farq qiladigan o‘ziga xos ayrim xususiyatga egadir”. Ana shu o‘ziga xos xususiyatni aniqlash maqsadida prof. U.Tursunov Samarqand viloyat o‘zbek xalq shevalari tasnifini bergan.

O'zbek shevalari umumxalq o'zbek tilining bir tarmog'i bo'lish bilan adabiy til va boshqa o'zbek shevalari uchun xos bo'lgan umumiy leksik qatlamga ega. Ayni paytda umumxalq o'zbek tili lug'at tarkibi barcha o'zbek shevalarining ham asosini tashkil qiladi. Shevalarda uchraydigan ayrim o'ziga xosliklar umumxalq lug'at fondiga zid kelmaydi. Bu xususiyatlar adabiy tilga nisbatan shevalarga xosdek ko'rinsa-da, aslida umumxalq tilining ayrim ko'rinishidir. Bu fikrlar U.Tursunovning "Shevalar leksikasi tadqiqi" asarida bayon etilgan.

Xullas, prof. U.Tursunov dialektologiyaga doir tadqiqotlarida quyidagilarni ro'yobga chiqargan:

1. O'zbek xalq shevalarini o'rganish dasturini tuzgan va shu asosda ish olib borgan.

2. O'zbek xalq og'zaki ijodining dialektlarni o'rganishdagi ahamiyatini belgilagan.

3. Samarqand viloyat o'zbek shevalari tasnifini bergan.

4. Umumxalq adabiy tilining bir ko'rinishi bo'lgan shevalar leksikasini tadqiq qilgan.

O'zbek tilshunosligining taraqqiyoti tarixiga nazar solganimizda uning dastlabki zarvara qarida professorlar Abdurauf Fitrat, G'ozim Olim Yunusov, Yevgeniy Polivanov kabi olimlarning ismi yozilganini ko'ramiz. Ular tilshunosligimizning to'ng'ich avlodi vakillari edilar va fanimizning tamal toshlari ham ular tomonidan qo'yilgan edi. Haqiqatan ham XX-asr boshlaridagi milliy uyg'onish harakatlari hamda boshqa jo'shqin ijtimoiy jarayonlar tufayli milliy tilga e'tiborning kuchayishi natijasida dastlabki ilmiy tadqiqotlar maydonga kelib, Istanbul universitetining bitiruvchilari bo'lgan Fitrat va G'ozim Olim, Sankt-Peterburg universitetining tadqiqotchisi bo'lmish Ye.Polivanovlar o'zbek tilshunosligining tamal toshlarini qo'yib bergan edilar. Fitratning "O'zbek tili qaidalari tog'rusida bir tajriba" ("O'zbek tili qoidalarini to'g'risida bir tajriba") [1] asari o'zbek tili grammatik qoida-qonunlarini sistemalashtirish bo'yicha, G'ozim Olimning "O'zbek lahjalari tasnifida bir tajriba" ("O'zbek lahjalari tasnifida bir tajriba") kitobi o'zbek shevalari tasnifi bo'yicha,

Ye.Polivanovning “Uzbekskaya dialektologiya i uzbekskiy literaturniy yazik” (“O‘zbek shevashunosligi va o‘zbek adabiy tili”) asari adabiy til va shevalar munosabatlarini o‘rganish bo‘yicha haqiqatan ham ilk tajribalar edi. O‘zbek tili grammatikasi va o‘zbek dialektologiyasi fanlarining boshlang‘ich sarchashmalari ham shu asarlar edi.

O‘zbek tilshunosligi fanining ikkinchi avlodi vakillari esa Ulug‘ Tursunov, Olim Usmon va Ayyub G‘ulom kabilar bo‘lib ular juda ziddiyatli va fojialarga to‘la bir davrda inson va olim bo‘lib shakllandilar, bu esa ularning biografiyasida o‘ziga xos iz qoldirdi. Ikkinchi avlod tilshunoslar butun dunyoga “Insoniyat tarixining yangi davri” deb jar solingan bir davrning, shoir so‘zi bilan aytganda “ko‘zda yosh bilan kulganlar” davrining yetishtirgan kishilari edilar. Jumladan, Ulug‘ Tursunov birinchi sho‘ro maktabi va texnikumining bitiruvchisi bo‘lgan edi. O‘sha “yangi davr”ning yangi, “sinfiy” axloqi, dunyoqarashi o‘sha “maktab”larning bitiruvchilariga singdirilmagan edi, deb ayta olmaymiz. O‘tgan asrning 30-yillarida qatag‘onlar mashinasi ishga tushganida va ularni tarbiyalagan tuzum o‘zi edirgan nonlarini oqlashni talab qilganida kechagina ustoz maqomida bo‘lgan kishilar haqida “zararkunanda”, “dushman” so‘zlarini qo‘llab, hukmron mafkuraning buyurtmasini bajarganlari ham rost. Va umuman, bu narsa faqat bir-ikki shaxsning emas, otani bolaga, shogirdni ustozga qarshi qayragan bir davrning fojiasi...

Xullas, o‘zbek tilshunosligining ikkinchi avlodi vakillari 30-yillar oxirida fanimizning darg‘alariga aylandilar. Ikkinchi jahon urushidan keyin fan qayta jonlanganida va qatag‘onlar suroni sal bosilganidan keyin ular ham o‘z e‘tiborlarini tilimizning ishlanmay qolib ketgan masalalariga, jumladan, lahja va shevalarni tekshirishga qaratdilar, shu ma’noda ular birinchi avlod tilshunoslar ishlarining davomchilari bo‘lib maydonga chiqdilar. Ulug‘ Tursunovning ilmiy-ijodiy biografiyasidagi eng sermahsul davr ham o‘sha 20-asrning 50-60 yillari, ehtimol.

Ma’lumki, o‘zbek tili dunyodagi eng shevasi ko‘p tillardan biridir va XX-asrning 50-yillariga kelib jamiyatda ro‘y bergan o‘zgarishlar

(yalpi savodxonlik, shaharlashish, matbuot va radioning ta'siri) natijasida shevalarning asl xususiyatlari yo'qola boshlaganida prof. U.Tursunov bu xavfni birinchilardan bo'lib sezgan va o'zi yaratgan Samarqand tilshunoslik maktabining salmoqli kuchlarini ham shevalarni o'rganishga safarbar etgan edi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Ulug' Tursunov o'z maktabi vakillarini o'zbek shevalarini o'rganish ishiga yo'naltirar ekan, o'zbek tili lahja va shevalarini ham hududiy, ham etnolingvistik jihatdan o'rganishni maqsad qilib qo'ydi. Chunki, o'zbek xalqining etnik tarkibida kamida 92 urug' va aymoqning mavjudligi, o'zbeklar respublikamiz hududidan chetda ham istiqomat qilishi, ba'zi urug' vakillarining turli mintaqalarda yashashlari kabi faktorlar e'tiborga olinmasa, tadqiqotlarning qiymatiga putur yetar edi. Shu sababli 50-yillarning eng salmoqli dialektologik tadqiqotlaridan V.Egamovning "Samarqand viloyatining G'allaorol shevasi" mavzusidagi, 60-yillarning shu xildagi ishlaridan M.Ahmedovning "O'zbek tilining Jo'sh shevasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalari ma'lum tumanlar hududidagi shevalarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, N.R.Rajabovning "O'zbek tilining Qarnob shevasi", M.Valievning "O'zbek tilining nayman shevasi", X.Jo'raevning "O'zbek tilining turk-kaltatoy shevasi" kabi dissertatsiyalari ma'lum urug'larning shevasini tadqiq, yetishga qaratilgan edi. Ta'kidlash lozimki, mazkur dissertatsiyalar o'zbek dialektologiyasi fanida ilk marta monografik planda bajarilgan tadqiqotlar edi, ulardagi ilmiy tahlil usullari, materiallarni yig'ish va tartibga solish uslubiyati keyinchalik keng yoyilib, Toshkentda (H.G'ulomov, Ya.G'ulomov, A.Ishaev, A.Shermatov, B.Jo'raev...), Buxoroda (M.Mirzaev), Farg'onada (S.Ibrohimov) shevashunoslik bo'yicha qator tadqiqotlar vujudga keldi va hatto shevashunoslik maktablari shakllandi (masalan, Toshkent maktabi).

Professor Ulug' Tursunning o'zi ham shevalarning sinchkov tadqiqotchisi edi hamda u sheva-adabiy til munosabatlarini diqqat bilan o'rganardi. Olim o'tgan asrning 50-60 yillarida

shevashunoslikning dolzarb muammolari bo'yicha bir necha maqolalar e'lon qilgan edi. Jumladan. "O'zbek tilidagi singarmonizm haqida", "O'zbek dialektologiyasi o'z rivojlanishining yangi bosqichida", "Samarqand viloyati o'zbek shevalarini o'rganishning ahvoli haqida", "Samarqand viloyatidagi o'zbek xalq shevalarini tasnif qilishga doir materiallar" kabi maqolalarida Ulug' Tursunov shevashunoslik fanidagi eng bahsli masalalar (jumladan, tilimizda singarmonizm bormi, yo'qmi?), dialektologik tadqiqotlarning saviyasini yuksaltirish va ilmiy-tekshiruv usullarini takomillashtirish yo'llari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etgandir.

Xullas, prof. U.T.Tursunov o'zbek shevalarini tadqiq etishga samarali hissa qo'shgan, tilimiz xazinalariga birinchilardan bo'lib yo'l ochgan olimdir. U yaratgan boshqa ilmiy an'analar kabi SamDUDagi shevashunoslik yo'nalishi istiqlol yillarida o'zining ikkinchi umrini yashamoqda. Jumladan, 2004 yilda bir necha yillik tanaffusdan so'ng yana shevashunoslikka doir 2 muhim izlanishning vujudga kelgani va bu ishlar eng zamonaviy yo'nalishlarda (lingvogeografiya va morfolingvogeografiya) bajarilgani diqqatga sazovordir. Navbatdagi vazifa esa, Samarqand dialektologiya maktabining eski shuhratini tiklash, tilimizning ochilmagan xazinalari-xalq shevalarini o'rganishga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishdir.

O'ZBEK TILI TERMINOLOGIYASI MUAMMOLARI

Ma'lumki, terminologiya tilshunoslikning eng dolzarb, ammo g'oyatda murakkab, ilmiy jihatdan esa ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega sohasidir.

O'zbek terminologiyasida terminlarning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan salmoqli ishlar mavjud. Ayniqsa, ba'zi terminlar tarixi, terminlarning ma'noviy-mavzuiy guruhlar, tarixiy-etimologik tarkibi, grammatik tuzilishi va yasalishi muammolari qoniqarli o'rganilgan. Shunga qaramasdan, ilmiy terminlar bilan xalq

terminologiyasi orasidagi munosabat, ularning chegaralari, umumiste'mol so'z bilan terminlar orasida farq ilmiy termin javob berishi lozim bo'lgan asosiy belgi va me'zonlar, tarixiy terminologiya bilan zamonaviy terminologik fond orasidagi munosabat, terminologik tizimni me'yorlashning ilmiy tamoyillari singari ko'pgina muammolari hali o'zining chuqur tadqiqini kutib turibdi. To'g'ri, tilga olingan masalalar bo'yicha ba'zi dissertatsiyalarda, Q. Zokirov, H.Jamolxonov, S. Usmonov, S.Akobirovlar qalamiga mansub risolalarda, ayniqsa, O.Usmonovning o'tgan asrning 1970-1980 yillarida yozgan bir qator maqolalarida qimmatli mulohazalar uchraydi.

Ma'lumki, har bir tildagi so'zlarning ko'pchiligi bir necha xil ma'noga ega bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlarning aniq ma'nosi matnda, gap tarkibida aniqlanadi. Ko'p ma'noli so'zlar nutqni ta'sirli, tasvirli, ixcham va o'tkir qilishda nihoyatda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, har bir tilda o'zining ishlatilish doirasiga ko'ra cheklangan, asosan, birgina ma'noga ega bo'lgan, birgina tushunchani ifodalaydigan so'zlar ham bo'ladi. Bunday so'zlar maxsus sohalarda ko'proq uchraydi. Bu sohalarda hamma narsa borliqni faqat mantiqiy jihatdan bilishga qaratilgan. Shuning uchun fan, texnika, siyosat, diplomatiya va boshqa sohalarda so'zlarning nihoyatda ravshan, aniq bo'lishi talab qilinadi.

Fikr, maqsadni yaqqol, aniq qilib berishda ma'nosi aniqlashgan, ishlatish doirasi nihoyatda cheklangan, muayyan bir tushunchanigina ifodalab kelgan so'z termin deb sanaladi. Masalan, radio, yadro, fonetika, leksika, morfologiya, ega, kesim, gap kabilar.

XX asrning 30-yillari o'zbek tilining ko'plab terminologik lug'atlari tuzilib nashr etildi. Shu jarayonda terminologiyaning nazariy masalalari ham ishlab chiqildi. Ulug' Tursunov birinchilardan bo'lib, terminologiya masalalariga oydinlik kiritdi. U o'zining "O'zbek terminologiyasi masalalari", "Terminologiya masalalari", "Terminologiyada panislomizm va panturkizmlarga qarshi (1933), "Til va terminologiyada burjua intilishlariga qarshi"(1933) kabi

asarlarini yozdi. Keyinchalik “O‘zbek adabiy tilida so‘z-terminlar tanlash prinsiplari”, “O‘zbek tilshunosligi terminologiyasining ba’zi masalalariga doir” (1955), “O‘zbek terminologiyasining boyish yo‘llari” (1960), “Puti obogamniya uzbekskoy terminologii” (1961), “Iz istori razvitiya uzbekskoy terminologii” (1968) maqolalarini nashr yettirdi.

Bu asarlarda terminlarni hosil qilish, to‘plash, tartibga solish, unifikasiyalash va nashr yetish sohasidagi turli xil qarashlar va tushunchalar qattiq tanqid qilindi. Terminologiya sohasida ro‘y bergan va ro‘y berayotgan chalkashliklar yaqqol ko‘zga tashlana boshlashi ta’kidlandi. Masalan, bir tushunchaning turlicha atala va yozila boshlashi; aniq va ixcham terminlar o‘rniga uzundan uzoq izohlarning berilishi; termin yaratishda ona tili imkoniyatlaridan kam foydalanish; o‘zbek terminologiyasini boyitishdagi manbalardan biri tashqi omilga turlicha yondashish faktlari mavjudligi ko‘rsatildi.

“Terminologiya masalalari” nomli risolasida o‘sha davr til siyosati ruhida yozilganini, unda ilmiy tahlillardan ko‘ra siyosiy mulohazalarga o‘ralgan fikrlarning ustunligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Shu sababli U.Tursunov risolaning bosh qismida til sohasida ko‘zga tashlanuvchi “Panturkizm”, “millatchilik”, “purizm”ga to‘xtaladi, ular oldinga surayotgan g‘oyalarni tahlil va tanqid qiladi. O‘sha davrda panturkistlar, chig‘atoychilar, aksilinqilobchilar deb yuritilgan guruhlarining ilmiy terminlarini yaratish va me‘yorlashdagi asosiy g‘oyalari quyidagicha edi:

Yevropa tillaridan olinadigan terminlar elga (xalqqa) tushunarli, el ichiga singib keta oladigan bo‘lishi lozim. Shunga ko‘ra terminlarni qo‘ldan kelgancha o‘zbek tilining o‘z so‘zlaridan tanlash lozim bordi-yu, terminga asos bo‘luvchi so‘z hozirgi tildan topilmasa, uni eski o‘zbek tilidan, unutilgan so‘zlardan axtarish lozim. Bunda xalq ashulalari, hikoyalari tiliga ham murojaat qilish mumkin; yasama terminlar ijod qilishda xalq qo‘llanayotgan so‘zlarga asoslanish lozim. Yasama so‘z o‘rinli va qulay bo‘lmog‘i kerak aksincha, u tilni buzadi; yasama terminlar o‘z tildan topilmaganda, boshqa turkiy tillardan

(qozoq, qirg‘iz, tatar, turkman, usmonli turk) olinish mumkin; boshqa tillardan olingan so‘zlar o‘zbek tilining qoidalariga buysundirilgan holda uzlashtirilishi lozim.

U.Tursunov yuqoridagi tamoyillarga aniq fikr bildirmaydi, ammo umumiy tarzda ularni “Chig‘atoy gurungining arxaistik metodi” deb baholaydi⁵¹. Keltirilgan mulohazalarda umuman puristik tendensiya sezilsa-da, unda termin tanlashda o‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlariga asoslanish lozimligi, terminning qulay va tushunarli, tilga singuvchan bo‘lishi, o‘zga qardosh xalqlar tajribalarini o‘rganish lozimligi haqidagi mulohaza, tamoyillar diqqatga molikdir.

U.Tursunov alifbo va terminologiya sohasidagi qarashlarda “usmoniy lashish”, turkiy xalqlarning barchasi “bir millat hisoblash”, ularga “umumiy til yaratish” harakati va g‘oyalariga qo‘shilmaydi⁵². Chunki ular terminologiya sohasida “Butun turklar uchun bir turli atama (istiloh) qabul qilinsin, yangi atamalar faqat turk so‘zlaridan olinsin, ba’zi mustasno hollarda turk tiliga zarar keltirmaslik sharti bilan istiloh olish mumkin”, deyilgan qat’iy talab qo‘yishadi.

U.Tursunov o‘zbek terminologiyasi sohasida yuqorida keltirilgan qarashlarga teskari bo‘lgan nuqtai nazarlar ham mavjudligini eslatadi hamda ushbu qarashlarni ijobiy baholaydi. Chunki ular:

1. “Til va termin masalasida umumturk xalqi tillarini umumiy tusda e’tiborga olib emas, balki o‘zbek jonli tilini e’tiborga olib fikr yuritadi.

2. Ovrupacha terminlar qabul qiluvda millatchilik taassuroti ko‘rsatmaydi va ulardan ehtiyojga ko‘ra so‘zlar oluvni ko‘zda tutib fikr yuritadi⁵³”.

U.Tursunov turkiy xalqlarni, ularning tillarini, terminologiyasi va alifbosini birlashtirish harakati soyasida yashirib yotgan boshqa bir g‘ayri ilmiy qarashga ham qo‘shilmaydi. Bu qarashga ko‘ra, hozirda mavjud turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili ham “...iqtisodiy sharoitlar talabiga muvofiq o‘z xususiyatlarini saqlab qolgan bir qancha

⁵¹ Турсунов У. Терминология масалалари. – Тошкент, 1938.- Б. 7.

⁵² O‘sha asar. - B.7.

⁵³ O‘sha asar. - B. 11.

lahjalarga bo‘lingan turk tilining bir lahjasidir⁵⁴”. Demak, ushbu fikrda turkiy tillarning har biri mustaqil milliy til ekanligi inkor etiladi.

Turkiy tillarning keyingi rivoji va hozirgi holati U.Tursunovning bu masalada to‘g‘ri nuqtai nazarda turganini tasdiqladi.

Risola oxirida muallif o‘zbek tili terminologiyasini yaratish va me‘yorlashga oid o‘z mulohazalarini ham bildirgan. U.Tursunov terminni quyidagicha tushunadi: “Termin so‘zdir, lekin har bir so‘z termin emas, termin o‘zining sifatiga faqat terminologiyaning belgili bir sistemasidagina belgili ma‘noni ifoda qilgan so‘zdir⁵⁵”. U.Tursunov baynalmilal terminlarni o‘zlashtirishda ularni sun‘iy muqobillar bilan almashtirishga qarshi turadi va traktorni “o‘tomoch”, proletariatni “yo‘qsil” kabi tarjima qilish noto‘g‘ri ekanini aytadi⁵⁶. Terminologiyani me‘yorlashda “...til qurilishi perspektivalarini ko‘z oldidan yo‘qotmaslik lozim”ligi⁵⁷ haqidagi mulohazasi asoslidir.

Demak, U.Tursunovning fikricha, terminologiya sohasidagi ishlar va terminlar istiqbolli, yashovchan, hayotiy bo‘lishi uchun tilning riaojlanish tendensiyalari hisobga olinishi lozim.

Fikr yuritilayotgan risolada ilmiy terminlarni yirik va kichik guruhlariga tasniflash haqida ham fikrlar bildirilib, terminlarning konkret tasniflaridan namunalar tavsiya qilingan. U.Tursunov kalkalash (tarjima qilish) mumkin bo‘lgan terminlar, bunda ular tarkibida uchraydigan so‘z yasovchi morfemalar, ularni o‘zbek tilida qanday ifodalash mumkinligi, buning yo‘llari, usullari haqida ham gapiradi. Uning fikricha, o‘zga tillardan kirib kelayotgan fan, texnika va siyosatga, fizkulturaga oid terminlarning “tarjima qilib o‘tirishning keragi yo‘q⁵⁸”. Ba‘zi o‘zlashma terminlar tarkibida keluvchi so‘z yasovchi ruscha morfemalarni o‘zbek tilida qanday berish mumkinligi haqidagi mulohazalar U.Tursunovning bu masala to‘g‘ri, istiqbolli

⁵⁴ O‘sha asar. - B. 12.

⁵⁵ O‘sha asar. - B. 13-14.

⁵⁶ O‘sha asar. - B. 14-15.

⁵⁷ O‘sha asar. - B. 15.

⁵⁸ O‘sha asar. - B. 16.

fikrda bo‘lganligini ko‘rsatadi: akdemicheskij – akademik, texnicheskij – texnik, lingvisticheskij – lingvistik; sosialniy – sosial, formalniy – formal, kollektivniy – kollektiv, obektivniy – obektiv, konkretniy - konkret, standartniy - standart kabi.

Prof. U.Tursunov terminlarning qo‘llanishi masalasiga ham katta ye’tibor bilan qaragan. Terminlarning muhim xususiyati shundaki, ular ko‘p ma’noli bo‘lmaydi, ko‘chma manolarda ishlatilmaydi. Lekin amaliyotda ba’zi bir so‘zlarning ikki-uch ma’noda termin bo‘lib kelishi ham uchraydi. Masalan, hozirgi o‘zbek tilida metateza (tilshunoslik), vektor (fizika), kurtak (botanika), motor (texnika) kabilar bir sohaning termini sifatida ishlatilsa: assimilyasiya (fizika, tilshunoslik, tarix), operasiya (tibbiyot, moliya, harbiy ish), morfologiya (tilshunoslik, botanika, zoologiya) kabilar har xil fan sohalari doirasida qo‘llaniladi. Ammo bundan terminlar ham ko‘p ma’noli bo‘lar ekan degan xulosa chiqmaydi. Uch ma’noda uch sohaning termini bo‘lib xizmat qilar ekan, uch xil ma’no yukini tashishga xizmat qiladi. Jumladan, operasiya so‘zini olib ko‘raylik: 1. Tibbiyot sohasida: yorish, kesish, kesib olib tashlash, yangisini qo‘yish va shu yo‘llar bilan kasallikni tuzatish, davolash ma’nosidagi termin. 2. Harbiy sohada: biror vazifa va maqsadni amalga oshirishga qaratilgan urush harakatlari ma’nosidagi termin. 3. Moliya sohasida: kirim, chiqim, foyda va zarar hisob-kitobi ma’nosidagi termin.

Terminlardagi ko‘p ma’nolilik bo‘lib ko‘ringan narsa, aslida, ulardagi bir ma’nolilik xususiyatlarining oddiy yig‘indisidan iboratdir. Chunki har bir sohada termin faqat ma’lum bir chegaraga ega bo‘lgan tushunchani anglatadi, uning boshqa sohadagi ma’nosi nazarda tutilmaydi.

Terminlar qo‘llanishini uch guruhga ajratib tahlil qiladi:

	Terminlar qo‘llanishini uch guruhi	Misollar
	bir sohada qo‘llaniladigan terminlar	metateza (tilshunoslik), vektor (fizika), kurtak (botanika), motor (texnika)

har xil sohada qo'llaniladigan terminlar	assimilyasiya (fizika, tilshunoslik, tarix), operasiya (tibbiyot, moliya, harbiy ish), morfologiya (tilshunoslik, botanika, zoologiya)
ham termin, ham oddiy so'z sifatida qo'llaniladigan terminlar	barmoq, kovurg'a, taroq, ko'zgu, kalit, burg'i

Qadimgi adabiy til an'analari asosida rivojlanib kelayotgan o'zbek tili real borliqdagi voqea-hodisalarni, tushunchalarni ifodalash uchun keng imkoniyatga ega. Xususan, keyingi yillarda paydo bo'lgan va paydo bo'layotgan jamiki yangi tushunchalarni ifodalash borasida o'zbek tili o'zining rivojlangan tillardan biri ekanligini isbotlamoqda. Buni, ayniqsa, o'zbek tili terminologik sistemalarining ichki va tashqi manbalar hisobiga rivoj topishi misolida yaqqol ko'rish mumkin. O'zbek tili terminologik tizimlarining rivojlanishi, shakllanishi va takomillashuvida shu tilning ichki imkoniyatlari asosiy rolni o'ynaydi. Chunki hayotda ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar, fan va texnika hamda madaniyatning rivojlanishi tilning ichki imkoniyatlaridan maksimal foydalanishni taqozo etadi. Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham u yoki bu tushunchani ifodalash uchun bir qancha usullardan foydalanadilar. Ular quyidagilardan iborat:

1. Terminlarning semantik yo'l hisobiga boyishi.
2. Terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.
3. Terminlarning sintaktik yo'l bilan yasalishi.

Qator terminologik sistemalarda semantik yo'l bilan termin yasashdan unumli foydalanib keladilar. Chunki semantik so'z yasash terminologiyada amal qilinadigan doimiy va an'anaviy yo'ldir. Terminlarni tekshirish jarayonida qator leksik qatlamlar semantik o'zgarish tufayli terminologik sistemadan joy olishi mumkinligini ko'rsatdi. Ular biror ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan o'zbek tilining odatdagi so'zlaridir. Ulardan termin sifatida foydalanadilar:

1. Ro‘zg‘or buyumlari nomlari qozon, cho‘mich, quti, kurak, panjara, pichoq kabilar termin sifatida qo‘llaniladi.

2. Odam yoki hayvon a‘zolarining nomlari barmoq, kovurg‘a, quloq, og‘iz, tovoq, tirnoq, bo‘yin, bo‘g‘iz, qanot kabilar termin bo‘lib ishlatiladi.

3. Maishiy narsa-buyum nomlari taroq, ko‘zgu, qalpoq kabilar termin sifatida ishlatiladi.

4. Texnikaga oid bo‘lmagan so‘zlar kalit, burg‘i, pona, payvandlash kabilar texnik termin sifatida qo‘llaniladi.

Sanab o‘tilgan odatdagi so‘zlar termin deb qabul qilinarkan, o‘sha so‘z ifodalaydigan tushuncha belgilari yoki ma’nolaridan bittasi termin anglatishi lozim predmetning biror muhim belgisini bildiradi. Bunday so‘zlar termin bo‘lishi uchun ular olimlar tomonidan ta’riflanadi va mantiqan qanday ma’no anglatishi chegaralab ko‘rsatiladi. Shundan so‘ng qaysi sohaning termini ekanligi qayd etiladi.

Xullas, so‘zning semantik taraqqiyoti tilda yangi so‘zning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi va u til terminologiyasini boyitishga xizmat qiladi.

Morfologik termin yasash shunday usulki, unda o‘zak-negizga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shiladi. Bunday termin yasash o‘zbek tilida eng mahsuldor usuldir.

Terminlarni yasashda quyidagi qo‘shimchalar faol ishtirok yetadi: **-gich (-kich, -g‘ich, -qich)** affiksi: **ajratgich, chang ajratgich, bo‘shatgich, qorigich, yem bug‘latgich** kabilar.

-soz affiksi: **aravasozi, kemasoz, asbobsoz, mashinasoz, soatsoz** kabi.

-ma affiksi: **birikma, moslama, tirkama, tortma, uzatma** kabilar.

-lik affiksi: **mashinistlik, soatsozlik, haydovchilik, muhandislik, kemasozlik, temirchilik** kabilar.

-t (-ish) affiksi: **purkash, cho‘zish, uchish, burish** kabilar.

-lash (-lashtirish) affiksi: bolg‘alash, mahkamlash, payvandlash, burg‘ilash kabilar.

-cha affiksi: bakcha, vagoncha, tebranish yo‘lchasi, qo‘shimcha kabilar.

-chi affiksi: pillachi, uchuvchi, dastgohchi, to‘quvchi, yig‘uvchi, aniqllovchi, to‘ldiruvchi kabilar.

O‘zbek tili terminologiyasida yakka so‘zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar ancha salmoqli o‘rinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar tillarda bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi.

Ma’lumki, har bir til o‘ziga xos grammatik qonuniyatlar asosida ish ko‘radi. Terminlar tuzilish materiali, ya’ni qanday so‘zlardan tashkil topganiga qarab bir necha xil bo‘lishi mumkin:

Ot+ot tipidagi birikma terminlar: samolyot borti, bug‘ mashina, shamol tegirmon, moy juvoz, temir qopqoq, arava gupchagi, radioning qulogi, samolyotning parragi kabilar.

Nisbiy sifat + ot tipidagi birikmalar: motorli qayiq, parrakli samolyot, magnitli diska, tirqama plug, halqasimon zichlagich kabilar.

Sifatdosh + ot tipidagi birikma terminlar: o‘ta sezgir apparat, sezgir asbob, o‘zi yurar mashina, pilla tortadigan avtomat, qirquvchi asbob, yurgizuvchi aravacha kabilar.

Xullas, o‘zbek tilida nisbiy sifat + ot tipidagi birikma terminlar kam uchrasa, **ot+ot** tipidagi birikma terminlar nihoyat darajada ko‘p qo‘llaniladi.

O‘zbek terminologiyasining tashqi manbaalar hisobiga boyishi. Dunyoda boshqa bir tildan so‘z o‘zlashtirmagan sof til bo‘lmagan va bo‘lmaydi ham. Bu gap tilning terminologik tizimlariga ham to‘la taalluqlidir. So‘z shuning uchun o‘zlashtiriladiki, buni xalqlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar taqozo etadi, bunga tilning o‘ziga xos ichki sabablari yo‘l ochib beradi. Hozirgi o‘zbek terminologiyasini yaratishda boshqa tillardan olib

foydalaniladigan leksik material etimologik jihatdan ikki guruhga bo'linadi:

1. Arab va fors-tojik so'zlari. Arab va fors-tojik tillariga mansub bo'lgan so'zlar yordamida termin yasash ko'proq davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya va fan, madaniy qurilish sohalariga oid bo'lib, ular XX asrning boshlaridan 90- yillarigacha yaratilgan, ularning umumiy miqdori, deyarli, bir nuqtada saqlanadi. XX asrning 90-yillaridan so'ng tilimiz, dinimiz qaytarib berilgach, islomiy leksikaning hajmi ko'paydi. Chunonchi nur, hujayra, davlat, xuquq, moliya, mudofaa, sanoat, ittifoq, millat, ma'rifat, maorif, doira, markaz, nisbat, isbot, san'at kabilar arab tilidan; barg, dastgoh, ohang, rang, poydevor kabilar fors-tojik tilidan kirgan so'zlardan hosil bo'lgan terminlar sanaladi.

2. Rus tilida qo'llaniladigan so'zlar. Rus tilidan o'zlashtirilgan terminlarning ba'zilar etimologik jihatdan rus tiliga xos bo'lsa ham, ba'zilar rus tiliga boshqa tillardan kirgan baynalminal terminlardir. Masalan: parovoz, teploxod, samovar, samolyot; minor gamma, silindrlar, bruslar, basketbol korzinasi so'zlari ruscha omonim, sinonim, metafora, vergul, metonimiya, sinekdoxa so'zlari grek-lotinchada asosda shakllangan.

O'sha davr ziyolilari, xususan, olimning taklifi bilan iloji boricha arabcha va ruscha terminlardan voz kechib, ularni imkon darajasida o'zbekchalashtirishga harakat qilinganligini quyidagi misollarda ham kurish mumkin: muallim – o'qituvchi, shogird - o'quvchi, vodorod - suvchil, kislorod - achchil, sinonim-ma'nodosh, omonim - shakldosh va b.

U. Tursunovning o'zbek terminologiyasiga oid mulohazalarida ba'zi bir qo'shilish qiyin fikrlar yoki yanglish talqinlar ham uchraydi. Bular, bizning nazarimizda, quyidagilar:

- uning terminologiyaga oid mulohazalarida ilmiy talqindan ko'ra, masalani siyosiy nuqtai nazardan turib talqin qilish kuchli. Bu aslida o'sha davrning ta'siridan yuzaga kelgan u o'z hamkasblarining

terminlarga oid fikrlarini, undagi ijobiy tomonlarini xolisona baholamaydi va yoppasiga qoralaydi;

- baynalmilal terminlarni maksimal darajada o'zgarishsiz qabul qilish tarafdori va u bu masalada kelgusida o'zbek tili taraqqiyoti tendensiyalari, tilning o'z ichki qonuniyatlari belgilashi mumkin bo'lgan holatga o'rin qoldirmaydi. Holbuki, hozirgi o'zbek terminologik tizimlarida ko'pgina baynalmilal terminlarga milliy (o'zbekcha) muqobillar topilgani va topilayotgani sir emas;

-terminologiya rivoji va konkret terminlarning kelgusi taqdiri haqida farazlar qilish qat'iy hukmlar chiqarish qiyin va murakkab masaladir. Buni U.Tursunovning quyidagi fikrlari istiqbolli bo'lmagani ham yaqqol tasdiqlaydi: **-iy, -viy, -iya** qo'shimchalarini internasional terminlar oxirida qo'shib termin yasash bizda oddiy xalqqa kirib qolgan, bu butunlay kelishmagan bir ishdir. Masalan: texnicheskiy - texnikaviy, fizicheskiy - fizikaviy⁵⁹.

Ulug' Tursunovning o'zbek xalq shevalarini o'rganish dasturini tuzgan va shu asosda ish olib borganligi o'zbek shevalarini, ularning leksik-semantik, grammatik qurilishini o'rganishga oid fikrlari o'zbek tilshunosligida keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda davom ettirildi.

U.Tursunovning dialektlarga xos xususiyatlarni ochib berishda xalq og'zaki ijodi namunalari tilidan o'rinli foydalanish bilan shevaga xos birliklar taraqqiyoti, fonetik o'zgarishlarga uchrashi, lug'aviy jihatdan o'zgarishi kabi hodisalar mohiyatini yoritib berganligi shevashunoslik ilmini yangi materiallar bilan boyitdi.

Bundan tashqari, olimning Samarqand viloyat o'zbek shevalari tasnifini berganligi shevashunoslikda shevalar tasnifi va joylashuvini tadqiq etishga oid kuzatishlarda bir qator qulayliklarni yuzaga keltirgan bo'lsa, umumxalq adabiy tilining bir ko'rinishi bo'lgan shevalar leksikasini tadqiq qilganligi o'zbek leksikologiyasi sohasining ham yutug'i hisoblanadi. Bu kuzatishlar asosida o'zbek tili

⁵⁹ O'sha asar. - B. 17.

lugʻat tarkibidagi oʻzgarishlar, leksik-semantik siljishlar toʻgʻrisida muayyan xulosalarga kelish mumkin.

Xullas, Ulugʻ Tursunovning oʻzbek tilshunosligi boʻyicha bajargan ilmiy va pedagogik faoliyati, yozgan asarlarini shartli ravishda quyidagicha olti guruhga ajratish mumkin: 1. Oʻzbek tili fonetikasi boʻyicha yozilgan ilmiy asarlar. 2. Imlo, orfoepiya va alifbo boʻyicha yozilgan asarlar. 3. Oʻzbek tili tarixiga doir ilmiy ishlar. 4. Leksikologiya, frazeologiya va terminologiyaga doir asarlar. 5. Oʻzbek dialektologiyasiga bagʻishlangan asarlar. 6. Rus va oʻzbek tillari hamda madaniyatlarining oʻzaro aloqasiga bagʻishlangan ilmiy ishlar.

Olimning ilmiy ishlarini turli sohalarga oid ekanligini eʼtiborga olib, ularni mazmun-mundarijasidan kelib chiqib, quyidagi qismlarga ajratgan holda xulosa chiqarish mumkin:

1. Maʼlumki, maʼlum bir tizimni tashkil etuvchi soʻzlarning asosiy qismi unlilar bilan undoshlarning oʻzaro birikishi natijasida hosil boʻladi. Ulugʻ Tursunov oʻzbek tilidagi tovushlar tizimi, unli va undoshlar tasnifiga doir qiziqarli fikrlar bildirgan. Uning bu qarashlari oʻzbek tilshunosligida keyingi yillarda bir qator ilmiy tadqiqotlarning yuzga kelishi uchun zamin yaratdi.

2. Soʻz fonetik tuzilishining oʻziga xos qoliplari, leksik tarkibning asosiy qismi shu qolipga boʻysinishi, soʻzlarning struktur – tovush qayta tuzilishiga taʼsir qiluvchi omillar haqida mulohaza yuritadi.

3. Olim fonetik hodisalar mohiyatini oʻzbek tili materiallari asosida ochib berishga harakat qilgan. Buni uning soʻzning birinchi boʻgʻinida biror unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishi bilan aloqador reduksiya hodisasi haqida mulohazalari ham tasdiqlaydi. Soʻz semantik taraqqiyotiga taʼsir etuvchi fonetik omillar toʻgʻrisidagi fikrlari bugungi kunda ham ahamiyatlidir.

4. Oʻzbek tilidagi singarmonizm, urgʻu va til tovush tuzilishining oʻzaro munosabati masalalariga oydinlik kiritilgan.

5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili orfografik mezonlarini tartibga solish muammolari kabi masalalarni yechishga harakat qiladi. Nutq tovushlarini aniq ifodalash uchun ishlatiladigan yozuv – transkripsiya masalalariga to‘xtalib, har bir nutq tovushining transkripsiyasiga o‘z qarashlarini ifodalaydi. Bu esa transkripsiya masalasining o‘rtaga qo‘yilishi o‘tgan asr tilshunosligining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lganligini tasdiqlaydi.

6. Professor Ulug‘ Tursunov o‘zbek adabiy tilining barcha sathlarini tarixiy tipologik planda o‘rganishni boshlab berdi.

7. Ulug‘ Tursunovning leksikologiyaga oid ishlari leksik sistemaning muammoli nuqtalariga bag‘ishlangani va ma’lum aspektlarda yechim topganligi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, “leksema”ning til birligi sifatidagi maqomi va uning mazmuniy mundariyasi aniq va qat’iy belgilangani o‘zbek tilshunosligida “leksema” yuzasidan qarashlarni mulohazali o‘rinlariga oydinlik kiritilgan.

8. So‘z yasashiga doir ilmiy ishlarida ustoz ayrim mulohazali va bahstlab nuqtalar tahlilini keltiradi. U tilshunoslikning so‘z yasalishi sohasini yangi qarashlar bilan yanada boyitdi.

9. Ulug‘ Tursunov o‘zbek tili stilistikasi faniga birinchilardan bo‘lib qo‘l urgan, uning dolzarb masalalarini teran tahlil qilgan mohir uslubshunosdir. U o‘zbek nutqi ko‘rinishlarini takomillashtirish g‘oyasini dastlab ilgari surgan olimdir. Uning ilmiy faoliyatining yana bir qirrası tilshunoslik va adabiyotshunoslik va boshqa sohalarni birlashtiruvchi uslubiyat sohasi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur yo‘nalishning o‘zbek tilshunosligida shakllanishida olimning xizmatlari kattadir.

10. Adabiy til xalq ijtimoiy hayotiga bog‘liq holda muntazam ravishda rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Tildagi har bir o‘zgarish, yangilanish dastlab uning lug‘aviy tarkibida aks etib, yangi terminlar hisobiga boyishiga yo‘l ochadi. Mana shu ma’noda o‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 1925-1940 yillarida ilmiy terminologiyani yaratish va me’yorlash sohasida amalga oshirilgan

ishlarni va ularning ijobiy tomonlarini ko'zdan kechirish nihoyatda muhimdir.

11. Samarqand tilshunoslik maktabida badiiy asar tili va uslubini o'rganish, til uslublarini tadqiq etish singari masalalarga keng o'rin berildi. Bu borada maktab vakillari professor Ulug' Tursunovning shogirdlari hamda safdoshlari qator ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Samarqand tilshunoslik maktabida badiiy asar tili na uslubi, til va nutq uslublari masalalarining o'rganilishi va tadqiq etilishini xronologik tarzda ham, ishlarning mazmuni va mohiyatini tahlil etish shaklida ham bayon qilish mumkin.

12. O'zbek shevashunosligini tadqiq etishga samarali hissa qo'shgan, birinchi bo'lib Samarqand maktabida shevashunoslik maktabini yaratgan. U sheva – adabiy til munosabatlari, o'zbek tilining lahja va shevalarini hududiy, etnolingvistik jihatdan tasniflab berdi va o'zbek dialektologiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

Xullas, Ulug' Tursunovning serqirra faoliyati ona tilimiz taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. U, birinchidan, sof ilmiy asosda yaratilgan asarlar bilan, ikkinchidan, bir qirrasi turli xil darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, uchinchidan, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan maqolalari bilan tilshunoslik taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Ulug' Tursunovning lingvistik merosini alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganish o'zbek tilshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Mirziyoev Sh. «Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir» mavzusida O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2017 yil, 4 avgust.
2. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 592 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni // Xalq so'zi, 2019, 22 oktyabr, № 218 (7448).

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

5. Abdullaev. F O'zbek til bilimi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti asarlari. Toshkent , 1949 ,B. 12-13.
6. Akobirov S. Til va terminologiya.-Toshkent: 1978.
7. Bektemirov H. Ruscha-baynalminal o'zlashmalarga o'zbekcha muqobillar tanlash masalalari // O'zbek tili atamashunosligi. 5-6 chiqaruv. - Toshkent: Fan, 1992, B.16-22.
8. Bektemirov H., Begmatov E Mustaqillik davri atamalari. - Toshkent: Fan, 2002.
9. G'ozzi Olim. O'zbek lahjalari tasnifidan bir tajriba. - Tashkent, 1935.
10. Yoqubov Odil. Atamalarni qo'llash me'yorlari. //O'zbek tili atamashunosligi, 9-10 chikaruv. - Toshkent: Fan, 1993, B.3-8.
11. Zokirov K.D., Jamolxonov X. O'zbek botanika terminologiyasi masalalari. - Toshkent: Fan, 1966.
12. Ibrohimov S. Til va terminologiya masalalari // Qurilish: 1931, 3-son.
13. Ibrohimov S. O'zbek tili terminologiyasi masalalariga doir //Qurilish, 1931, 2-son.
14. Yo'ldoshev B. Frazologiya tarixidan lavhalar. - Samarqand: Sug'diyona nashriyoti. 1998.

15. Yoʻldoshev B., Eltazarov J. Lingvistik geografiya va shevashunoslikning oʻzaro munosabatiga doir // Geografiya va barqaror rivojlanish. I. Professor Ali Abdulqosimov tavalludining 70 yilligiga bagʻishlangan ilmiy konferensiya materiallari . - Samarqand: SamDU, 2004, B.101-103.
16. Madvaliev A., Mahkamov N. Oʻzbek tili ish yuritish atamalarini tartibga solish haqida // Oʻzbek tili atamashunosligi. 5-6 chiqaruv. - Toshkent: Fan, 1992, B.40-43.
17. Mamatov A. Frazologik stilistika masalalari. - Toshkent: Fan, 1991. - B. 6-10.
18. Maxdshamov N. Terminologiyamiz taraqqiyoti yoʻlida // Oʻzbek tili va adabiyoti, 2004, B.7.
19. Mirzaev. M., Usmonov S , Rasulov I. Oʻzbek tili. Toshkent: Oʻqituvchi, 1972, 82 b.
20. Nazirov S. Istiloh masalasi //Til - imlo masalalari. - Toshkent, - Samarqand: 1929.
21. Rajabov N. Karnabskiy govor uzbekskogo yazika. -AKD. - Samarkand, 1958. Valiev M. Naymanskiy govor uzbekskogo yazika. - AKD. - Samarkand, 1965. Djuraev X. Tyurk-kaltatayskiy govor uzbekskogo yazika. - AKD. -Samarkand, 1975.
22. Tursunov U. , Muxtorov J. Hozirgi zamon oʻzbek tili. Morfologiya. - Samarkand: 1960, -195 b.
23. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Morfologiya, leksikologiya. -Toshkent: Oʻqituvchi, 1975.-260 b.
24. Tursunov U. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. -Toshkent: Oʻqituvchi, 1965.
25. Tursunov U. K voprosu razvitiya uzbekskogo literaturnogo yazika v sovetский period // Trudi UzGU imeni A.Navoi. Novaya seriya, vip. 76. - S. 184- 194.
26. Tursunov U. Terminologiya masalalari. – Toshkent: 1938 (lotin yozuvida).
27. Tursunov U. Terminologiya masalalari. - Toshkent: Uzdavrnashr, 1933.
28. Tursunov U. Til - terminologiyada burjuaziya intilishlariga qarshi // Nauchnie raboti UzNIIKS, t. I, vip. 1. – Toshkent: 1933.
29. Tursunov U. Oʻzbek adabiy tilida stilistik sinonimlar // Oʻzbek tilshunosligi masalalari. Sam DU asarlari.
30. Tursunov U. Oʻzbek adabiy tilida soʻz-terminlar tanlash prinsiplari. - Samarqand: 1956.

31. Tursunov U. O'zbek terminologiyasi masalalari. O'zbek terminologiyasi masalalari Toshkent: O'znashr 1933 yil (lotin yozuvida).

32. Tursunov U. O'zbek terminologiyasining boyish yo'llari // UzDU asarlari, 102 son. -Samarqand: 1959.

33. Tursunov U. O'zbek tilidagi ba'zi bir ravishdosh formalarning xususiyatlari // Trudi Uzbekskogo gosuniversiteta im.A.Navoi. Novaya seriya. Vip. 139. -Samarkand: 1964, s. 11-12.

34. Tursunov U., Doniyorov X. O'zbek tilidagi singarmonizm haqida // Trudy Uzbekskogo gosuniversiteta im Navoi. Novaya ser., 1959, вып. 91, s.37-44.

35. Tursunov U., Doniyorov X. Shoirning poetik tili haqida // Lenin yo'li, 1959 yil 25 dekabr.

36. Tursunov U., Doniyorov X., O'zbek tilidagi singarmonizm haqida, "UzDU asarlari", 91-son. -Samarqand: 1959.

37. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: O'zbekiston, 1992, 41- 49-betlar.

38. Tursunov U., Muxtorov J, Raxmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: O'qituvchi, 1992.

39. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi O'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik Uchinchi nashri. -Toshkent: O'zbekiston, 1992.

40. Tursunov U., Rajabov N. O sostoyani izucheniya Uzbekskix govorov Samarkandskoy oblasti // Nauch. tr. Tashk. un-ta, 1963, вып. 211, kn.24., S. 180-187.

41. Tursunov U., Rajabov N. Samarqand viloyatidagi o'zbek xalq shevalarini tasnif qilishga doir materiallar // Trudi Samarkandskogo gosuniversiteta im Navoi. Novaya ser., 1963, vip. 129, s. 117-132.

42. Tursunov U., Rajabov N. O'zbek dialektologiyasi o'z rivojlanishining yangi bosqichida // Trudi Uzbekskogo gosuniversiteta im Navoi. Novaya ser., 1959, vip. 102, S.3-11.

43. Tursunov U., Rajabov N. O'zbek tili leksikasining ba'zi masalalari, Samarqand: SamDU nashri, 1971. - B. 118.

44. Tursunov U., O'rinboev B. Alisher Navoiy asarlari tilida leksik va grammatik normalarning belgilanishi, "SamDU asarlari", 88. -Samarqand: 1971, B.3-7.

45. Tursunov U., O'rinboev B. Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili. - Samarqand: 1968, -40 b.

46. Tursunov U., O'rinboev B. O'zbek adabiy tili ocherklari, - Samarqand: 1969, -269 b.

47. Tursunov U., O'rinboev B. O'zbek adabiy tili tarixi. -Toshkent: "O'qituvchi", 1982, -176 b.

48. Tursunov U., O‘rinboev B. O‘zbek adabiy tili tarixi. -Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995.
49. Tursunov U., O‘rinboev B. O‘zbek adabiy tili tarixi.- Toshkent: O‘qituvchi, 1982.
50. Tursunov U., O‘rinboev B., Aliev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. - Dorilfununlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. - Toshkent: O‘qtuvchi, 1995, -262 b.
51. Tursunov U., Rajabov N. Hozirgi O‘zbek adabiy tilidagi sinonimlar haqida ba’zi mulohazalar. // Trudi Samarkandskogo gosuniversiteta im.A.Navoi. Novaya seriya, vip.102, 1960, 2. B.12-28.
52. Tursunov U.T. Sostoyanie i zadachi izucheniya frazeologii uzbekskogo yazika // Voprosi frazeologi. Trudi SamGU, novaya seriya, vipusk 106. Samarqand. 1961.-S. 7-11.
53. Tursunov U.T. Sostoyanie i zadachi izucheniya frazeologi uzbekskogo yazika // Voprosi frazeologi. Trudy SamGU, novaya seriya, vipusk 106 Samarqand. 1961. - S. 10-11.
54. Tursunov U., Doniyorov X. Xalq shoirlari asarlarini o‘rganishning o‘zbek dialektologiyasi fani uchun ahamiyati // O‘zbek tilshunosligi masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. Yangi seriya, 129-nashr. - Samarkand: SamDU nashri, 1963, B.133-144-b.
55. Tursunov U., Nosirov U. Ob opredeleni ponyatiya stilya pisatelya (na materiale uzbekskogo yaika) // Razvitie stilisticheskix sistem literaturnix yazikov narodov SSSR. - Ashxabad, 1968. - S. 267-274.
56. Tursunov. U, Rahmatullaev. Sh, Muxtorov. J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent: O‘qituvchi, 1992, B. 247-248 b.
57. Tursunov. U., O‘rinboev B. O‘zbek adabiy tili tarixi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1982, B.30-34-b.
58. Tursunov.U. O‘zbek tilida so‘z turkumlarining yasalishiga doir masalalari to‘g‘risida. // Filologiya fanlari kandidati darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -Samarkand: 1941, -74 b.
59. Ulug‘ Tursun. Til va terminologiyada burjua intilishlariga qarshi // O‘zbekiston Madaniy qurilishi ilmiy tekshirish institutining to‘plami. - Tashkent, 1933, S. 33-37.
60. O‘rinboev B., Qo‘ng‘urov R. Ulug‘ Tashmuxeamedovich Tursunov. - Tashkent: Fan, 1985, 7 s.
61. Usmonov S. O‘zbek terminologiyasining ba’zi masalalari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1968.
62. O‘zbek tili grammatikasi. 11 tom. -Toshkent, 1975, 122-123 betlar.
63. O‘rinboev B. Ulug‘ Tursunov haqidagi xotiralaridan. – Samarqand: SamDU. 2005.

64. O‘rinboev B., O‘rinboeva D. Ulug‘ Tursun va Samarqand tilshunoslik maktabi, Samarqand: SamDU nashri 2004.
65. Fitrat. O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba. Sarf. Birinchi kitob. 6-bosma. - Samarqand-Toshkent, 1930.
66. Fozilov E. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi,- Toshkent: Fan, 1965.
67. Hojiev A. Termin tanlash me‘yorlari. - Toshkent: Fan, 1996.
68. Hozirgi zamon o‘zbek tili. -Toshkent: Uzdabiy nashr, 1957, -484 b.
69. Sharafiddinov O. Istiqlof fidoyilari. - Toshkent, 1995.
70. Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1 kism.- Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
71. Elmurodov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida fe‘l nisbatlarining o‘rganilishi. - Samarqand, 1997.
72. Eltazarov J. O‘zbek shevalari so‘z turkumlarini lingvogeografik jixatdan o‘rganishga doir // O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 24-jild. - Toshkent, 2004. - 102- 105 b.

Internet manbalari

1. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/mahmud-az-zamahshariy-1075-1144>
2. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-al-v19.html?page=2> (murojaat qilingan sana 28.06.2020)
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Maqol> (murojaat qilingan sana 15.02.2021)
4. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/04/15/kadirov-rus/> (aprel, 2021)
5. <https://translate.google.com> (fevral- 2021)
6. <https://www.fayllar.org/y-hamrayeva-ozbek-va-rus-tillarining-qiyosiy-tipologiyasi-maru.html> (15.09.2021)
7. http://ususoft.uz/uz/programma_dlya_lekarstv.php
8. <https://uz.pobedidijabetes.org/3009-sibutramine-group.html>
9. https://studme.org/280800/literatura/artikulyatsionnaya_baza_yazyk a (yanvar, 2021)
10. <http://m.xabar.uz/uz/tahlil/robinzon-tili-yoxud-ona-tilimiz> (19.06.2019)
11. <https://hozir.org/talaffuzdagi-kamchiliklar-va-ularni-bartaraf-etish-yollari-ozb.html> (15.09.2021)
12. <https://hozir.org/muqimiy-nomidagi.html> (03.03.2020)

13. http://marifat.uz/marifat/ruknlar/Xalq_bilan_muloqot/2322.htm
(30.01.2019)
14. https://studme.org/280800/literatura/artikulyatsionnaya_baza_yazyka (yanvar, 2021)
15. <https://www.gumer.info/biblioter-Burs/Linguist/maslova/06/php>.
16. https://dspace.spbu.ru/bitstream/11701/12222/1/Singarmonizm_kak_akcentnoe_javlenije_Gordienko.pdf (yanvar, 2021).
17. https://enc.for.uz/wiki/Jahon_tillari (12.09.2021)
18. <https://classes.ru/grammar/153.new-in-linguistics-/source/worddocuments/4.htm>
19. https://lingvistics_dictionary.academic.ru/
20. <https://lex.uz>
21. <https://uztag.info/uz/news/yil-boshidan-buyen-toshkentda-446-dori-darmondan-za-arlanishi-olati-ani-landi> (aprel, 2022)

ILMIY NASHR

RASULOVA ISTODA ABDULATIFOVNA

**ULUG‘ TURSUNOV VA SAMARQAND
TILSHUNOSLIK MAKTABI**

monografiya

Muharrir:

Hafiza Aslanova

Musahhih:

Zavqiy Meliyev

Sahifalovchi:

Qobiljon Djurayev

“FAN BULOG‘I” nashriyoti.

Samarqand shahri, S.Buxoriy ko‘chasi, 1^a-11 uy.

Nashriyot litsenziyasi: № 4341-5160-642c-944b-ab74-5062-3969

ISBN:978-9910-753-41-1

Bosishga 23.02.2024 yilda ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84_{1/32}. Ofset bosma usulda.

Nashr bosma tabog‘i 5.0.

Adadi 30 nusxa. Buyurtma raqami № 07/24.

MChJ “NAVRO‘Z POLIGRAF” matbaa bo‘limida chop etildi.

Litsenziya № 18-3327 30.08.2019 yil.

Manzil: Samarqand shahar, H.Abdullayev ko‘chasi, 63-uy.



Rasulova Istoda Abdulatifovna 1987-yil 18-iyun kuni Samarqand shahrida, ziyoli oilasida tug'ilgan. Samarqand shahridagi 9-umumta'lim maktabida hamda Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti qoshida tashkil etilgan 2-texnik litseyda tahsil olgan. 2005-2009-yillar mobaynida Samarqand davlat universiteti Filologiya fakultetida bakalavr yo'nalishida tahsil olgan. 2011-yil Samarqand davlat universiteti lingvistika (o'zbek tili) magistratura bosqichida o'qishini davom ettirgan hamda 2013-yilda bitirgan. 2010-2015-yillar Samarqand shahar 35-umumta'lim o'qituvchisi, 20015-2020-yillarda Samarqand tumanidagi 51-son umumta'lim maktabi o'qituvchisi, 2020-2023-yillar Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası o'qituvchisi, 2023-yildan Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası mudiri lavozimada faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Ta'lim va ijtimoiy sohani isloh qilishda o'zining teran fikrlari ishlanmalari bilan qatnashib kelmoqda. Ta'lim va o'z sohasining yetuk mutaxassisi. Faoliyati davomida 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, 3 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 40 dan ortiq ilmiy maqola va risolalar chop etgan.

ISBN:978-9910-753-41-1



9 789910 753411